

A. Abdullayev, H. Aybeshov,  
Sh. Mamatqulov, X. Xo'jaqulov

# QO'SHMA KORXONALAR IQTISODI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
5340100 «Iqtisodiyot» tarmoqlari bo'yicha bakalavriat ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun  
«Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanidan o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan.*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2005*

**Mas'ul muharrir:**

*N.Mahmudov — iqtisod fanlari doktori, professor.*

**Taqrizchilar:**

*M. Ortigov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,  
M.Oxunov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.*

**Q 98** Qo'shma korxona iqtisodi: Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 5340100 «Iqtisodiyot» tarmoqlari bo'yicha bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalari uchun «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanidan o'quv qo'llanma: A.Abdullayev, H.Aybeshov, Sh.Mamatqulov, X.Xo'jaqulov. Qo'shma korxona iqtisodi — T.: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi — T., — 2005. — 112 b.

1. Abdullayev A. va boshqalar.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ishlab chiqarishni yanada to'laroq ta'minlashdan iboratdir. Ushbu muhim masalalarning hal etilishida qo'shma tadbirdorlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijobjiy hal etilishi tadbirdorlarda xorijiy sarmoyali korxonalar haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lishni, qo'shma tadbirdorlikni tashkil etish qoidalarini bilishni va qo'shma korxonalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmini to'la anglashga bog'liq bo'ladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida masalalarning ijobjiy hal etilishi ilmiy jihatdan yoritib berilgan.

Qo'llanma barcha iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari talabalari, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari va bu sohaga qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

**BBK 65. 298 (5U)y73**

A  $\frac{4306020600-78}{360/04/-2005}$  — 2005

ISBN 5-8250-0973-6

© Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y.

## KIRISH

Qo'shma korxona — bu ikki va undan ortiq mulk egalarining yagona maqsad yo'lida tashkil etadigan korxonasi hisoblanadi. Qo'shma korxonalar bir necha davlatlarning aralash yoki davlat mulki asosida tashkil etiladi.

Respublikamizda mustaqillikka erishilgandan so'ng Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berildi. Uning huquqiy bazasi shakllantirildi, chet ellik investorlarning faoliyati kafolatlandi.

Qo'shma tadbirkorlikni yanada rivojlantirish o'z navbatida ushbu soha uchun zarur kadrlar tayyorlashni taqozo etdi. Yuqorida masalani hal etish maqsadida tayyorlangan «Qo'shma korxonalar iqtisodi» o'quv qo'llanmasi boshlang'ich qadam hisoblanadi.

Qo'llanmada asosiy e'tibor qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishning uslubiy asoslarini yaratishga, qo'shma korxona tashkil etishning tartib qoidalariga, qo'shma korxonalarda faoliyat olib borishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga hamda qator mamlakatlarda erkin iqtisodiy hudud tashkil etish masalalariga qaratilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish tadbirlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari asos qilib olingan. Ma'lumotlar bazasi etib «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi olingan.

Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda yaqindan ko'mak bergen «Iqtisodiyot» fani kafedrasi o'qituvchisi Ilhom Umarovga o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

# I bob

## «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining nazariy va uslubiy asoslari

---

### 1.1. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining mavzusi, obyekti va o'rganishning ahamiyati

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri — bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilganligidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zлari uchun eng qulay va ishonchli sherik deb hisoblab kelmoqdalar. Sababi, respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarni respublikamizga joylashtirish va biz bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish istagi ortib bormoqda. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari (belgilari) quyidagilardan iborat:

- respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik;
- boy xomashyo resurslari mavjudligi;
- qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligi.

Bugunga kelib respublikamiz ko'plab yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida hamkorlikda ish olib bormoqda. Buning yaqqol isboti sifatida iqtisodiyotimizda faol harakat ko'rsatayotgan Janubiy Koreya bilan hamkorlikda tashkil etilgan O'zDEUavto, Samko'chAvto, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan tashkil etilgan «Alisher Navoiy Interneshnl» qo'shma korxonalarini va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

Hozirga kelib qo'shma korxonalar respublikamiz iqtisodiyotida muhim o'rnlardan birini egalladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish evaziga qo'shma korxonalarning ishlab chiqarilayotgan ichki mahsulotdagi ulushi 15 foizdan ortib ketdi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yuqori natijalar qo'lga kiritilib, tashqi savdo oborotida ijobji qoldiqqa erishildi. Respublikamizda ishlab chiqarishning yetakchi sohalarida keskin burilishlarga erishildi. Sanoatda bir qator — yangi avtomobilsozlik, qurilish industriyasi, aloqa kommunikatsiya sohalari

vujudga keldi va respublikamiz jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘la boshladi.

«Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning asosiy obyekti — bu qo‘shma tadbirkorlik asosida tashkil etilgan tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shaklidir. Ularga aksiyadorlik jamiyatni shaklida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar, mas’uliyati cheklangan korxonalar, sherikliklar, erkin iqtisodiy zonalar kiradi.

«Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganish quyidagi muhim vazifalarni hal etadi:

- qo‘shma korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rniga baho berish va ularning kelgusida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko‘maklashuvini ta’minlash;

- qo‘shma tadbirkorlikning huquqiy asosini tashkil etish, ularni halol raqobat sharoitlarini yaratishga xizmat qildirish;

- talabalarga «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning uslubiy asoslarini yoritib berish;

- qo‘shma tadbirkorlikning tashkiliy, huquqiy shakllari haqida atroflicha ma’lumot berish;

- qo‘shma korxonalarini tashkil etishda tadbirkorlarga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko‘rsatish;

- qo‘shma korxonalarda xo‘jalik faoliyatini yuritish mexanizmlarini shakllantirishni oqilona ta’minlash;

- erkin iqtisodiy zona mazmuni va mohiyatini talabalarga, tadbirkorlarga yetkazib berish.

Barcha iqtisodiy fanlarni o‘rganish singari «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fani ham o‘zining o‘rganish uslubiy asoslariga ega. «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning metodikasi deyilganda, biz fanni o‘rganishda foydalanan layotgan barcha usul (metod)lar yig‘indisini tushunamiz.

«Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning uslubi deganda esa bu fanni o‘rganishdagi barcha usul (metod)lar va qonuniyat (prinsip)lar tushuniladi.

## ***1.2. «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanining asosiy prinsiplari***

Avvalo, biz prinsip tushunchasi mazmunini anglab olaylik. «Prinsip» so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, «asos», «dastlabki», ya’ni «xatti-harakat yoki faoliyatning asosiy qoidasi» ma’nolarini

bildiradi. Prinsiplarni «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining asosi, amaliyotdagi negizi deyish mumkin. Tamoyil (pirnsip)lar qo'shma korxona iqtisodining obyekti va subyekti o'rtasidagi obyektiv, muhim, takrorlanmaydigan, nisbiy, turg'un, aniq, muayyanlik, mohiyat bilan umumiy bog'lanish, voqealar rivojining ma'lum shart-sharoitlarga yo'nalishi va xususiyatini belgilab beradi.

«Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining o'rganish prinsiplarini ikki asosiy guruhg'a bo'lish mumkin:

1. Umumiy prinsiplar.
2. Xususiy prinsiplar.

Umumiy prinsiplarga O'zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlash-tirishning beshta asosiy tamoyilini kiritish mumkin (1-jadvalga qarang).

*1-jadval.*

#### **«Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanini o'rganish prinsiplari**

1.	Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi	Ilmiylik
2.	Davlat — bosh islohotchi	Umumiylik
3.	Qonun ustuvorligi	Rejalashtirish
4.	Kuchli ijtimoiy siyosat	Moslashuvchanlik
5.	Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish	Rejalilik
6.	Demokratiyalash va baynalminallik	Maqsadlilik va manzillilik
7.		Tezkorlik
8.		Samaradorlik

#### **Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi**

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi asosiy tamoyil hisoblanib, jamiyat taraqqiyotining asosi iqtisodiyot ekanligini ifodalaydi. Har qanday siyosat iqtisodiy asosga ega bo'lishi zarur. Aks holda u quruq gapdir.

#### **Davlat bosh islohotchi**

Bozor munosabatlariiga o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma so-

halarini o'zgartirishni izchillik bilan amalga oshirishni taqozo etadi. «Davlat bosh islohotchi» prinsipining mohiyati davlat iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'naliшlarida yaqqol namoyon bo'ladi:

- bozor iqtisodiyoti huquqiy asoslarini ta'minlash;
- bozor mexanizmining yaxlitligi va uning normal ishlashi uchun shart-sharoit yaratish;
- aholini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va daromadlarni adolatli taqsimlash;
- atrof-muhitni muhofaza etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarni samarali rivojlantirishni ta'minlash negizida milliy an'analarni saqlab qolish.

Bu vazifalarning amalga oshirilishiда qo'shma tadbirkorlik muhim rol o'ynaydi.

### **Qonun ustuvorligi prinsipining mohiyati**

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish — bu faqat o'tish davrining majburiy sharti bo'libgina qolmay, balki huquqiy davlat barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir.

Qo'shma korxonalar amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mahalliy hamda xalqaro qonun normalari asosida tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi. Bu o'z-o'zidan qonun ustuvorligi mohiyatini anglatadi.

### **Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy himoya**

O'zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri — bu bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy himoya siyosatini yurga-zishdir.

Ushbu tamoyilning mohiyati qo'shma korxonalardagi ijtimoiy himoya siyosatining ahamiyati va bu siyosatning hozirgi kundagi yo'naliшlar, o'tish davridagi asosiy vazifalar hamda bu vazifalarni qat'iy amalga oshirish chora-tadbirlari bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy himoya siyosatining asosi:

- aholining ijtimoiy ahvoli keskin yomonlashib ketishiga va ommaviy qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- ijtimoiy himoya vositalaridan ongli foydalanish, sharoitga moslashtirish;
- ijtimoiy himoya vositalarini himoyaga muhtoj bo‘lganlarga nisbatan qo‘llash;
- ongli narx-navo siyosatini olib borish, narxning asossiz ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Qo‘shma korxonalar tashkil etilishidan asosiylar maqsad, O‘zbekistonda ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va bozor andozasini yaratish, aholining turmush farovonligini oshirish va ishsizlikni bartaraf etish hamda investitsiya tanqisligining oldini olishdan iboratdir.

### **Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish**

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish — iqtisodiyotni barqarorlashtirish, bozor infratuzilmasini yaratish va bozor munosabatlariga to‘la o‘tishni, milliy infratuzilmani saqlab qolish va uni buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlaydi.

Iqtisodiy islohotlarning g‘oyat muhim vazifasi davlat mulki monopoliyasini tugatish va mulkni xususiylashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat. Yuqoridaq vazifaning hal etilishi ko‘p jihatdan tadbirkorlikni rivojlantirishga bog‘liqdir.

Bu esa demokratiyalash va baynalminallik tamoyili mohiyatini anglatadi.

Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- qo‘shma tadbirkorlik faoliyati teng huquqlilik tamoyiliga asoslanganligi;
- hududi, millati, irqidan qat’iy nazar, barcha ta’sischilar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egaligi;
- ishlab chiqarish natijalaridan o‘z ulushlari doirasida teng manfaatdor bo‘lishi;
- ishlab chiqarilgan tovarlar oshkoraliqi ta‘minlanganligi va hokazo.

**«Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning xususiy principalaridan biri ilmiylik tamoyili bo‘lib, uning mohiyati qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatining muvaffaqiyatli boshqarishda iqtisodiy qonunlar, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari, tabiat qonunlarini chuqur o‘rgangan holda qarorlar qabul qilish, erishilgan**

ilg‘or tajribalar natijalarini o‘rganish va shu asosda korxona strategiyalarini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi.

**Ilmiylik prinsipining** buzilishi qo‘shma korxonalar ishlab chiqarishining samaradorligi pasayishiga va jahon bozorida o‘z o‘rnining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

**Maqsadlilik (manzillilik) prinsipi** — bu qo‘shma korxona ishlab chiqarish faoliyatları ma’lum bir maqsad va manzilga qaratilganligini, ishsizlikni cheklash, ichki bozorni to‘ldirish, milliy imkoniyatlardan to‘la foydalanish va hokazolarni anglatadi.

Qo‘shma tadbirkorlikda ichki va tashqi investorlar manfaatlari uyg‘unligi o‘z aksini topishi lozim.

**Tezkorlik prinsipi** — bu qo‘shma korxona faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishda qarorlarning o‘z vaqtida qabul qilinishi va tez amalga oshirilishini bildiradi. Bu esa yaratilgan g‘oya bilan uning ishlab chiqarishga tatbiq qilish muddatini iloji boricha qisqartirishni taqozo etadi.

**Samaradorlik prinsipi** — qo‘shma korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy holati barqarorlashuvida erishilgan ijobiy natijalarni xarakterlaydi.

**Umumiylilik prinsipi** — qo‘shma korxona ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, qabul qilingan qarorlar barcha sohalar, bo‘limlar va ta’sischilar uchun umumiyyidir. Bu yerda ta’sischilar tarkibidan va holatidan qat‘i nazar, korxona bosh strategiyasi yagona hisoblanadi.

**Rejalilik prinsipi** — «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning o‘ziga xos tamoyili hisoblanadi. Bu yerda ikki va undan ortiq ta’sischilar manfaatlari mosligi o‘z aksini topishi shartdir. Bundan tashqari, korxona faoliyatini boshqarishda xalqaro konvensiya qoidalariga itoat qilish, ichki va tashqi bozor talablari asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uning muhim bir sharti hisoblanadi.

### ***1.3. «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganish usullari***

Har qanday fan o‘z obyektlarini ma’lum usullar yordamida o‘rganadi. Usul — bu fanning o‘rganishda foydalaniладиган yo‘llar yig‘indisidir. «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanini o‘rganishning

usullarini ikki guruhga: umumiy va xususiy usullarga bo‘lish mumkin (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

	Tashqi muhit	Ichki muhit
1.	Mahsulot va tarmoq rivojlanishi istiqbollari.	Marketing.
2.	Raqobat holati.	Moliya.
3.	Mahsulotlar iste’molchilari.	Ishlab chiqarish faoliyati.
4.	Sotish faoliyati.	Inson omili.
5.	Makromuhit rivojlanish tendensiyasi.	Ma’muriy faoliyat.

**Umumiy usullar** qo’shma korxonalar xo’jalik faoliyatining umumlashgan tomonlarini xarakterlaydi.

**Tarixiy yondashuv** usulida qo’shma korxona faoliyatini muvafiqiyatli boshqarishda erishilgan taraqqiyot tajribasi natijalariga asoslanish tushuniladi.

Qo’shma korxonalar tashkil etishda an’analarga sodiq qolish ham buning yaqqol misolidir.

**Sistemali yondashuv usuli** — bu qo’shma korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda ma’lum bir tartibga solingan ko’rsatkichlardan foydalanishni bildiradi. Ularning tarkibiga foyda olish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o’rinlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorni to’ldirish, aholini iste’mol tovarlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish, atrof-muhit muhofazasini ta’minlashni xarakterlovchi ko’rsatkichlar kiradi.

**Tarkibiy yondashuv usulidan** qo’shma korxonalar tashkil etishda keng foydalaniladi. Ta’sischilarining ustav fondidagi ulushi daromadning ustav fondidagi ulushiga qarab taqsimlanishi, boshqarishda aksiya paketiga alohida e’tibor berilishida bu usul harakatini yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Tarkibiy yondashuv usulidan foydalanish ko‘p miqdorda ta’sischilar orasidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning to‘g’ri yechilishini ta’minlaydi.

**Kompleks yondashuv usuli** deganda, qo’shma korxonalar faoliyatini boshqarishda quyida keltirilgan ichki va tashqi muhit omil-larga to’la asoslanish tushuniladi (3-jadvalga qarang).

## Tashqi va ichki muhit omillari

	<b>Umumiy usullar</b>	<b>Tahlil etishda foydalaniladigan xususiy usullar</b>
1.	Tarixiy yondashuv.	Muvozanat usuli.
2.	Sistemali yondashuv.	Normativ usul.
3.	Tarkibiy yondashuv.	Iqtisodiy matematik usul.
4.	Kompleks yondashuv.	Ekstropolyatsiya usuli.
5.	Sistemali-tarkibiy yondashuv.	Induktiv usul.
6.	Aql hamlasi (mozgovaya ataka).	Sotsiologik tadqiqot usuli.
7.	Delfi.	Ekspert baholash usul.
8.		Maqsadli rejalashtirilgan usul.

Demak, qo'shma korxonalar faoliyatini boshqarishda yuqoridaq omillarni to'la e'tiborga olmoq lozim.

**Sistemali va tarkibiy yondashuv** — bu sistemali va tarkibiy yondashuvdan ongli ravishda belgilangan maqsadga erishish yo'lida foydalanishni anglatadi. Bu yerda qo'shma korxona strategiyasi asosiy mezon vazifasini bajarmog'i lozim.

**Aql hamlasi usulidan** qo'shma korxonalar faoliyatini boshqarishda keng foydalaniladi. Masalan, korxona biznes rejalarini ishlab chiqish, ishchi guruhlari tashkil etish, ishchi guruh tarkibiga barcha soha mutaxassislarini jalb etish va ularga korxona bosh strategiyasidan kelib chiqib, aniq vazifalar belgilab chiqishi, shu jumladan, tashqi ekspertlar xizmatidan foydalanish ham mumkin.

**Delfi usuli** mazmun jihatidan qisman aql hamlasi usuliga mos keladi. Bundan korxona faoliyatini o'rganish va tahlil etishda keng foydalaniladi. Bu usulning xususiyatlari tomoni shundaki, korxona faoliyati yuzasidan qaror qabul qilishda tarixiy materiallardan, o'tgan davr natijalaridan, shu jumladan, anonim materiallardan ham foydalanish mumkin.

**Muvozanat (balans) usuli** — qo'shma korxona xo'jalik faoliyati yuritishni tartibga solib turuvchi asosiy usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu usulning mohiyati proporsional rivojlanishni talab va taklif qonunlari harakatidan kelib chiqib, aholining

o'sib borayotgan ehtiyojlarini yanada to'laroq ta'minlashda qo'shma korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining muvozanat holatini saqlash va harakat davri davomida yuzaga keladigan noxush «disproporsiyalar»ning oldini olishdan iborat.

Bu vazifalarni hal etishda bir qator muvozanat (balans)-lardan foydalaniladi:

- ishlab chiqarish va iste'mol orasidagi muvozanat;
- xomashyo va materiallar manbalari muvozanati;
- mehnat manbalari muvozanati;
- moliya manbalari muvozanati va hokazo.

**Normativ usul.** Bu usulning mohiyati qo'shma korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlardan foydalanishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda normalar o'z navbatida material, mehnat, ish haqi, energiya, yoqilg'i sarfi va hokazolar bo'yicha bo'lishi mumkin. Shuni esda tutmoq lozimki, norma va normativlar qat'iy emas, ular ishlab chiqarishda erishilgan yutuq va tajribalarga asoslangan holda qayta ko'rib boriladi.

**Maqsadli dastur (programma)lashgan usul.** Qo'shma tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish davrida korxonalar bir qator muammo va to'siqlarga duch keladi. Ushbu to'siqlarni maqsadli dasturlarsiz hal etib bo'lmaydi. Muammo va to'siqlarning maqsadli dasturlar yordamida hal etilishi maqsadli dasturlashgan usul mohiyatini anglatadi.

**Iqtisodiy matematik usul** mohiyati qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini har tomonlama ilmiy jihatdan asoslangan holda hal etishda matematik usul va modellardan foydalanishda yaqqol ko'rindi. Bu usuldan foydalanish 50-yillardan keyin kirib kelgan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

**Ekstropolyatsiya usuli** — rejali boshqarish davrida iqtisodiy fanlarni o'rganishning asosiy usullaridan hisoblangan bo'lsa-da, bugungi kunda ham ayrim masalalarni hal etishda undan keng foydalaniladi. Masalan, qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli rejalarini ishlab chiqarish, ularni kelgusida rivojlantirish ko'rsatkichlarini aniqlashda va h.k.

**Induktiv (taksib) usuli** — bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan usullardan asosiysi hisoblanadi. Qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishda tomonlar imkoniyatlariga asoslanib, talab va taklifdan kelib

chiqib ishlab chiqarish reja va topshiriqlarni belgilash bu usul mohiyatini anglatadi.

Qo'shma tadbirkorlikni tashkil etish va uni kelgusida rivojlan-tirish istiqbollarini belgilashda sotsiologik tadqiqotlar natijasiga asoslanish, ular yuzasidan xulosa chiqarishda ekspertlar xizmatidan foydalanish **sotsiologik tadqiqot va ekspert baholash usullari** mohiyatini anglatadi.

Bu metodlar mazmuni ushbu darslikning tegishli boblarida keng yoritilgan.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining mavzusi haqida nima-ni bilasiz?
2. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining obyekti deganda ni-mani tushunasiz?
3. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanini o'rganishning ahamiyati qanday?
4. Uslub va uslubiyat tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Asosiy qonuniyat (prinsip)lar mohiyati nimalardan iborat?
6. Xususiy qonuniyat (prinsip)lar mohiyati qanday?
7. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishning besh asosiy tamoyilini bilasizmi?
8. Umumiy usullar mohiyati qanday?
9. Aniq usullar mohiyati qanday?

### **Tayanch iboralar**

1. **Qo'shma tadbirkorlik zonası** — alohida valyuta, moliyaviy-huquqiy, bojxona, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy tartib o'matilgan hudud hisoblanadi. Bu yerda xorijiy sarmoyalalar manfaatlari mahalliy sarmoyalalar manfaatlari kabi teng himoya qilinadi, xalqaro mehnat taqsimotining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi ta'minlanadi va iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi.

2. **Metodika** — fanni o'rganishning aniq usullari.
3. **Metodologiya** — fanni o'rganishdagi tamoyillar va usullar yig'indisi.

## II bob

### Qo'shma korxonalar tashkil etishning asoslari

---

#### ***2.1. Qo'shma korxonalar tashkil etishning zarurati, mohiyati va vazifalari***

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo'shma korxona hisoblanadi. Qo'shma korxonalarining yuzaga kelishi — bu ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanishining bir usulidir. U qo'shma tadbirkorlik xo'jalik yuritishining yangi usullarini joriy etadi va takror ishlab chiqarishning baynalmallashuvini ta'minlaydi.

Qo'shma korxonalar tashkil etish xo'jalik yuritish faoliyatiga yangi turdag'i munosabat va fazilatlarni olib kiradi. Korxona va tashkilotlarning chet ellik sheriklari bilan aloqasini yuksaltiradi. O'zbekiston hududida chet el tadbirkorlariga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga chet el investitsiyasini jalb etadi.

Qo'shma korxonalar mulkchilikning aralash ko'rinishi hisoblanib, bunda davlat, jamoa va xususiy mulk umumlashgan bo'ladi. Korxonaning o'zi bir necha davlatlar ta'sischilarining shartnomalari asosida shakllanadi. Bu yerda qo'shma korxona ta'sischilar davlat korxonalarini va tashkilotlari, jamoa xo'jaliklari, hissadorlik jamiyatlari va jamoat tashkilotlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim fuqarolar (jismoniy shaxslar) ham ta'sischi bo'lish huquqiga egadirlar.

Qo'shma korxonalar tashkil etishning zarurati: birinchidan, chet ellardan mashina va qurilmalarni kredit olish hisobiga xarid qilish iqtisodiyotni tanglik holatidan olib chiqishga to'la imkon bermasa-da, tovar ishlab chiqarishni ko'paytirishga sezilarli hissa qo'sha oladi.

Ikkinchidan, xalq iste'moli tovarlarini chetdan keltirish keyingi yillarda ma'lum darajada muammolar tug'dirmoqda. Bu esa iqtisodiyotni tubdan qayta qurish, mamlakatlarni xalqaro savdo uyushmasiga iloji boricha tezroq kirib borishlarini talab etadi. Hozirga qadar jahon amaliyotida xalqaro savdo uyushmasiga tovar almashinuvi va keng xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish uchun kreditlar berish tartibi keng qo'llanilib kelingan. Garchand

murakkab usul bo'lsa-da, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya tariqasida unumli kapitalni import qilish samarali bo'lib qoldi. Bunda import qiluvchi mamlakatlar hech qanday qo'shimcha foizlar to'lamaydilar. Shu bilan bir qatorda, chet ellik investorlardan soliqlar, ijara to'lovlari kabi boshqa ko'rinishlarda daromad ham oladilar.

Buning yana bir muhim tomoni — chet elda o'z korxonasini tashkil etayotgan jamoa mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, to tayyor mahsulotlarni sotishga qadar bo'lgan jarayonlarni o'z zimmasiga oladi. Qo'shma korxonalarining tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqeい ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda yuqoridagi kabi davlatlararo iqtisodiy aloqalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- korxonalar to'lov valyuta balansini turg'unlashtirish va mamlakatlar valyuta holatini normallashuvini ta'minlash;
- iste'mol tovarlari bozorini turg'unlashtirish va ishlab chiqarishning samarali faoliyat yuritishiga ko'maklashish;
- bozor infratuzilmasini shakllantirishda texnik-iqtisodiy maslahatlar va moliyaviy xalqaro hamkorlikning zarurligi.

Mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha ta'sischilar investitsion loyihani to'lig'icha yoki qisman moliyalashtirishda ishtirok etadi.

Sharoitdan kelib chiqib, mablag'lar davlat yoki boshqa sektorlarga qayta taqsimlanishi mumkin.

Qo'shma korxonalarining ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfni qoplash, korxona faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir.

Chet el investitsiyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish to'g'risidagi qonun-hujjatlariga binoan hozirgi kunda:

- korxonaning nizom fondida ta'sischilarning o'z ulushi bo'yicha ishtirok etishi;
- korxonalarining mulki, aksiyasi va boshqa turdag'i qog'ozlarni sotib olishi;
- mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda yerlarni sotib olish ko'rinishlarida ko'proq jalb etilmoqda.

Xorijiy sarmoyali korxonalarga quyidagi ikkita asosiy talab qo'yiladi:

birinchi: chet ellik sarmoyadorlarning nizom kapitalidagi ulushi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak;

ikkinchi: nizom kapitalining qiymati 150 ming AQSH dollari miqdordan ortiq bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida chet el investorlari (yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lishidan qat'iy nazar) qo'shma tadbirkorlikning barcha shakllarini tashkil etishda ishtirot etishga haqlidirlar. Shu jumladan, to'lig'icha (100%) chet el kapitali asosida tashkil etilgan qo'shma korxonalar respublikamiz hududida to'la himoya qilinadi. Ularning barcha tartib va qoidalari respublikamiz hududida faoliyat olib borayotgan mahalliy korxonalar tartibiga mos kelishi va qulay bo'lishi lozim, ya'ni:

- qo'shma korxonaning nizom kapitalining qiymati 150 ming AQSH dollaridan ortiq bo'lsa;
- qo'shma korxona ta'sischilarining kamida bittasi xorijiy yuridik shaxs hisoblansa;
- xorijiy sarmoyadorlar ulushi 30 foizdan kam bo'limasa, xorijiy sarmoyali korxona sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Qo'shma korxonalar nizom fondi ta'sischilar kapitali ulushlari jamg'armasi asosida tashkil etiladi. Nizom fondi miqdori korxona ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqib aniqlanadi. Foydasi esa ta'sischilar qo'shgan hissaga mos ravishda taqsimlanadi. Nizom fondi yer uchastkasi, imorat va inshootlar, har xil kommunikatsiyalar, tabiiy manbalar kabi material ko'rinishida bo'lishi mumkin. Nizom fondining qiymati — bu asosiy va aylanma kapital qiymatidan iborat bo'ladi.

Chet el sarmoyadorlarining nizom fondidagi hissasi chet el valyutasida jahon bozori baholari asosida aniqlanadi. Chet ellik ta'sischining nizom fondidagi ulushi shartnomalarnayotgan davrdagi davlat bankining tijorat kursi bo'yicha hisoblanadi.

Mahalliy ta'sischining nizom fondidagi ulushi uning mavjud imkoniyatlarini kelishilgan asosda baholash orqali aniqlanadi.

Qo'shma korxonalar tashkil etish — bu murakkab jarayon hisoblanadi. Bu yerda hamkorlar tanlanadi, ular orasida ushbu masala yuzasidan muzokaralar olib boriladi. Muzokaralarda tomonlarning asosiy qarashlari aniqlanadi, oldindan olib borilgan muzokaralar bosqichida kelgusidagi maqsadlar kelishib olinadi va ular shartnomalarda rasmiylashtiriladi. Tuzilgan shartnomalar qo'shma korxonalar tashkil etishning asosiy hujjati hisoblanmaydi.

Chunki qo'shma korxona tashkil etilganini tasdiqlovchi hujjat faqat mahalliy hokimiyat qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosiy hujjat hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab esa qo'shma korxona yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Qo'shma korxonalar tashkil etish muvaffaqiyatining bosh omili bir-biriga qiziquvchan hamkorlarning topilishiga bog'liqdir. Bu yerda ko'p narsa bankka bog'liq bo'ladi, ulardan ta'sischilarning imkoniyatlari haqida to'la ma'lumot olish mumkin.

Qo'shma korxonalarni tashkil etishda birinchi navbatda korxonaning faoliyati texnik-iqtisodiy jihatdan asoslab beriladi.

## **1. Texnik-iqtisodiy asoslash**

Asoslashda korxona tavsifnomasi, faoliyat turi va tashkil etish shartlari yoritiladi:

1. Mahalliy korxonaning nomi.
2. Ta'sisci hisoblangan chet el firmasining nomi.
3. Yangi tashkil etilayotgan qo'shma korxonaning nomi.
4. Qo'shma korxonaning faoliyat ko'rsatish davri (qo'shma korxona qurilishi boshlangan yil, qurish muddati, foydalanish davri).
5. Yillar bo'yicha qo'shma korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi.
6. Ichki va tashqi bozorga yillar bo'yicha qo'yiladigan mahsulot hajmi.
7. Yillar bo'yicha kapital sarflar: so'mda va chet el valyutasi hisobida.
8. Yillar bo'yicha ta'sischilarning nizom kapitaliga qo'shgan ulushi.
9. Qo'shma korxonaning yillar bo'yicha olgan krediti (so'm va chet el valyutasi) miqdori.
10. Kreditning yillar bo'yicha qaytarilishi miqdori, shu jumladan, foizi bilan.

## **2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga texnik iqtisodiy tavsifnoma**

1. Qo'shma korxonaning asosiy turdag'i tovar mahsulotlari nomi.
2. Ichki va tashqi bozorga qo'yilgan mahsulot bahosini aniqlash usuli.
3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

### **3. Normativlarni aniqlash tartibi**

1. So‘mni chet el valyutasiga aylantirishda davlat banki kursi.
2. Qo‘shma korxona foydasidan soliqqa ajratma darajasi.
3. Mamlakat tashqarisiga jo‘natiladigan foydadan olinadigan soliq darajasi.
4. Foydadan zaxira, ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyoti va boshqa fondlarga ajratmalar miqdori.

### **4. Qo‘shma korxona tashkil etish va unung faoliyat yuritish samaradorligi hisobi**

1. Qo‘shma korxona tashkil etish uchun to‘la kapital mablag‘lar sarfi miqdori.
2. Kapital mablag‘ning yillik samaradorligi (rentabellik darajasi 15 foizdan kam bo‘lmasligi).
3. Kapital sarflar qoplanishi muddati.
4. Valyutada o‘zini-o‘zi qoplash muddati.

### **5. Valyutada o‘zini-o‘zi qoplash muddatini aniqlash**

1. Valyuta tushumi, shu jumladan:
  - mahsulot sotishdan tushgan valyuta miqdori;
  - valyuta ko‘rinishida qo‘shma korxona olgan kredit miqdori.
2. Valyuta sarflari:
  - ishlab chiqarish zarurati uchun valyuta sarfi miqdori;
  - valyuta ko‘rinishida chet ellik mutaxassislarga to‘langan haqlar;
  - valyuta kreditlari uchun to‘lovlar, shu jumladan, foizi uchun ham to‘lovlar;
  - chet ellik qatnashchilarining valyuta ko‘rinishidagi olgan foydasi;
  - valyuta tushum qoldig‘i.

### **6. Qo‘shma korxona tashkil etish va uning xalq xo‘jaligidagi samarasi**

1. Respublika daromadining o‘sisi:
  - qo‘shma korxonadan olingan foyda solig‘i;
  - chet ellik ta’sischi ulushini chetga chiqarish evaziga olingan foydasidan to‘lov;

- chet el qatnashchisining chet elga o'tkazib berilgan foyda solig'i.
- 2. Mahalliy qatnashchi foydasi.
- 3. O'zbekiston banklari tomonidan qo'shma korxonalarga berilgan kreditlar:
  - kreditning qaytarilishi hisobiga tushum, shu jumladan, foizi qo'shib hisoblanganda;
  - respublika banklarida qo'shma korxona mulkini saqlash evaziga olingan to'lovlari.
- 4. O'zbekistonlik ta'sischining nizom fondidagi hissasi.

## ***2.2. Ta'sischilar va ularning manfaatlari***

Ta'sischilar manfaatlari — bu qo'shma tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tomonlar orasidagi ko'zlangan maqsadlardir.

O'zbekiston tomoni manfaatlari:

- O'zbekiston Respublikasi ulushiga yarasha foyda olish, bu kelgusida mustaqil ravishda korxona fondiga yo'naltiriladi;
- ilg'or texnika va texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yangi shakllariga o'tish;
- marketing xizmatini yaxshilash, mahsulotni sotish va reklama qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;
- bozor talabini sifatlari mahsulotlar va xizmatlar bilan ta'minlash.

Chet ellik ta'sischilar manfaatlari:

- ma'lum bir mehnat intizomiga ega bo'lgan arzon ishchi kuchiga ega bo'lish, evaziga o'z texnologiyasidan samarali foydalanishga erishish;
- chet ellarga kapital chiqarish evaziga nisbatan yuqori foyda olish;
- mahsulotlar sotib olish bozorini ma'lum bir miqdorga kengaytirish.

Qo'shma korxonalarining strategiyasi iqtisodiy va ilmiy-texnik sohalarda ko'zlangan bosh maqsadga erishishdir. Qo'shma korxonalarining asosiy maqsadi keng qamrovli bo'lib, u shaxsiy xo'jalik faoliyatining xarakteri va yo'nalishidan kelib chiqib belgilanadi.

Ularga:

1. Murakkab va chuqur fundamental izlanishlar talab qiladigan tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirish.
2. Chetga mahsulot sotishni kuchaytirish va jahon bozorida o'z o'mniga ega bo'lish.

3. Valyuta ko‘rinishida daromad olish.
4. Yollangan kapitalga nisbatan kam foizlar belgilangan sarmoyalarga ega bo‘lish.

Qo‘shma korxonalar faoliyati doirasi keng hisoblanib, u tadbirkorlikning barcha faoliyat turlariga xosdir, ya’ni ishlab chiqarish sohasida, xizmat ko‘rsatish sohasida, savdo vositachilik sohasida, moliya bozorida va hokazo.

Qo‘shma korxonalar tashkil etilishi natijasida ishlab chiqarishda mashina va qurilmalar yangilanishi ortadi, mahsulot raqobatbardoshliligi bosh mezonga aylanadi.

Qo‘shma korxonalarining tashkil etilishi ta’sischilarning bir qancha afzalliklarga ega bo‘lishiga olib keladi.

Jumladan:

- kapital mablag‘ni jalb etishda naqd pulga bo‘lgan ehtiyojning uncha katta emasligi;
- chet el investitsiyasidan foydalanish evaziga daromad olishda ishtirok etish;
- jahon bozorini o‘rganish, tajriba orttirish va ulardan kelgusidagi hamkorlikda keng foydalanish;
- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- ma’muriy boshqarish, sotish xarajatlarini iqtisod qilish.

Yuqoridagilar orasida oxirgi ikki omil qo‘shma korxonalar samaradorligi ortishida alohida o‘rin tutadi. Qo‘shma korxonalaming asosiy tashkiliy shakllariga quyidagilar kiradi:

- mas’uliyati cheklangan kompaniya;
- hissadorlik jamiyatları;
- shartnomalar asosida qo‘shma tadbirkorlik.

Yuqoridagi qo‘shma tadbirkorlikning qaysi bir tashkiliy-huquqiy shaklining tanlanishi ta’sischilar tomonidan qo‘shma faoliyat tashkil etilayotgan davlat qonunlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Mas’uliyati cheklangan korxonalar jahoning bir qator mamlakatlari — Angliya, Avstriya kabi davlatlarga xos bo‘lib, har ikki tomon ham korxonani boshqarishda ishtirok etadi. Korxonaning nizom fondidagi ulushiga qarab moliyaviy shartlarni bajaradilar.

Hissadorlik jamiyatlarining asosiy ko‘rinishi korporatsiya hisoblanadi. Hissadorlik jamiyatları G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHga xosdir.

Hozirgi zamon amaliyotida xalqaro qo‘shma korxonalarining eng ko‘p tarqalgan shakli qo‘shma hissadorlik jamiyatları hisob-

lanadi. Mulk shaklining ushbu ko'rinishida hamkorlar faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar aksiyalarini sotib oladi yoki yangi kompaniyalarini ro'yxatdan o'tkazib, o'z aksiyalarini chiqaradi.

Masalan:

«Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi ta'sischilar:

1. Markaziy Osiyo — Amerika tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.

Prezident: Richard Brenssrot, Vitse-prezident: Patrik Diki.

2. Ochiq turdag'i «Alisher Navoiy» hissadorlik jamiyati:

Rais: Haitboy Abdulhakimov.

Bosh muhandis: G'iyos Xudoyberdiyev.

3. Aksiyador: Muhammad Iqbol.

«Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi nizom fondi.

Nizom fondi: 6.756.750 AQSH dollar: 345.945.600 so'm.

Aksiyalar soni: 10000 ta.

Bir aksiyaning nominal qiymati: 34.594,56 so'm.

Nizom fondi quyidagi 4-jadvalda ko'rsatilgan tartibda ta'sischilar orasida taqsimlangan:

*4-jadval.*

**«Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi joylashtirgan aksiyalar**

№	Ta'sischilar	Aksiyalar soni	Qiymati		Ulushi %
			So'm	Dollar	
1.	Markaziy Osiyo — Amerika tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	5550	192.000.000	3.750.000	55,5
2.	Ochiq turdag'i «Alisher Navoiy» hissadorlik jamiyati	4440	153.600.000	3000000	44,4
3.	Muhammad Iqbol	100	345.600	6750	0,1

Asosiy ta'sischi Markaziy Osiyo — Amerika tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisoblanadi.

## **2.3. Ta'sis shartnomasi va qo'shma korxonalar infratuzilmasi**

Qo'shma korxonalar infratuzilmasi — bu o'zida mavjud bo'lgan hozirgi zamon aloqa, transport vositalari, korxona ixtiyorida bo'lgan imorat va inshootlar, ko'rgazmalar zali, servis xizmati, reklama-axborot ta'minoti, madaniy-maishiy binolar va mehmonxonalaridan tashkil topadi. Qo'shma korxonalar infratuzilmasining tashkil etilishi ushbu bozorda korxona mavqeining yuksalishiga olib keladi, ular mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berish jarayonining mukammallashuviga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalarda infratuzilmaning yaratilish holati sust kechmoqda. Bunga bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir etadi. Ular jumlasiga qo'shma faoliyatni yo'lga qo'yish va boshqarish sohasida malakali kadrlar yetishmasligi, qo'shma korxonalarini tashkil etishda ayrim byurokratik to'siqlar mavjudligidir.

Qo'shma korxonalar tashkil etish jarayonida birinchi navbatda ta'sis shartnomasi tuziladi. Ta'sis shartnomasi ta'sischilar tomonidan tuzib chiqiladi va ta'sis yig'ilishida tasdiqlanadi.

Ta'sis shartnomasida ta'sischilar haqidagi asosiy ma'lumotlar qo'shma korxonaning tashkil etilishi va ularga doir barcha zaruriy ma'lumotlar, korxonaning nizom jamg'armasi va ularning joylashtirilish tartibi, ta'sischilarining huquq va majburiyatlari hamda boshqa turdagи masalalar yoritiladi. Quyidagi 5-jadvalda «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdagи aksiyadorlik jamiyatni shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi ta'sis shartnomasi misol keltirilgan.

*5-jadval.*

**«Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdagи aksiyadorlik jamiyatni shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasini tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasining mazmuni**

Moddalar nomi	Moddalar mazmuni
<i>Ta'sischilar haqida qisqacha ma'lumotlar</i>	
1	2
1-modda. Jamiyatning barpo etilishi.	1.1. Hujjatlar va ro'yxatdan o'tish. 1.2. Asl shakldagi badallarni baholash. 1.3. Davlat ta'sischilari badallari.

2-modda. Nizom jam-g'armasi va joylashtirilgan aksiyalar.	2.1. Miqdor. 2.2. To'lov miqdori va tartibi. Joylashtirilgan aksiyalar.
3-modda. Ta'sischilararning huquq va majburiyatlari.	3.1. Bahs-munozaralarni hal etish. 3.2. Vazifalari.
4-modda. Boshqa masalalar.	4.1. Bahs-munozaralarni hal etish. 4.2. Kuchga kirish. 4.3. To'ldirma yoki o'zgartmalar. 4.4. To'g'ri kelmaslik.

#### *2.4. Qo'shma korxona Nizomi va uning mazmuni*

Nizom (ustav) tadbirkorlik faoliyatining asosiy hujjati hisoblanadi. Qo'shma korxonalar nizomi ta'sischilar tomonidan tuzib chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Qo'shma korxonalar nizomi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- qo'shma korxonalar faoliyatining maqsadini;
- tashkil etadigan joyi va manzilgohini;
- nizom kapitali miqdori va tashkil etish tartibini;
- boshqaruva organi tarkibi va tuzilishi;
- qarorlar qabul qilish tartibini;
- bir ovozdan qabul qilishni talab etuvchi savollarni;
- qo'shma korxonalar tugatilishi tartibini.

Nizom (ustav)ga respublika qonunlariga zid kelmaydigan va ruxsat etilgan faoliyatning barcha turlari kiritiladi.

Qo'shma korxonalar faoliyatining davom etish muddati ta'sischilar kelishuvi asosida belgilanadi va nizomda qayd etib qo'yiladi.

Quyida «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyat shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasi ning Nizomi mazmuni keltirilgan (6-jadvalga qarang):

*6-jadval.*

**«Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyat shaklidagi  
O'zbek — Amerika qo'shma korxonasining Nizomi mazmuni**

No	Nizom moddalari	Moddalar mazmuni
1	2	3
1.	1-modda.	Ta'riflar, sarlavhalar.

1	2	3
2.	2-modda.	Ta'sischilar, jamiyatning nomi, jamiyatning manzili.
3.	3-modda.	Yuridik maqomi.
4.	4-modda.	Faoliyat maqsadlari, xo'jalik faoliyatları.
5.	5-modda.	Jamiyat aksiyalari, nizom fondi.
6.	6-modda.	Aksiyadorlar reyestri.
7.	7-modda.	Foydaning taqsimlanishi.
8.	8-modda.	Aksiyadorlarning huquqlari va vazifalari.
9.	9-modda.	Boshqaruvchi organlar.
10.	10-modda.	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi.
11.	11-modda.	Kuzatuv kengashi.
12.	12-modda.	Boshqaruv: xodimlar.
13.	13-modda.	Taftish komissiyasi: mustaqil audit
14.	14-modda.	Buxgalteriya hisobi, hisobot, nazorat
15.	15-modda.	Qayta tashkil etish: tugatish.
16.	16-modda.	Umumiy qoidalar

*Izoh:* Nizomda yuqoridagi har bir modda mazmuniga ko'ra alohida guruhlarga ajratilib yoritiladi.

Qo'shma korxonalar nizomi vaqtı-vaqtı bilan ta'sischilar tomonidan qayta ko'rib chiqilishi va unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Qo'shma korxonalar nizoming yangi tahriri ham tegishli davlat organlari tomonidan qaytadan tasdiqlanadi.

## ***2.5. Qo'shma korxonani ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritish tartibi***

Qo'shma korxonani ro'yxatdan o'tkazish Respublika Adliya vazirligi, Moliya vazirligi qoshidagi davlat daromadlari boshqarmasi tomonidan o'tkaziladi. Buning uchun:

- davlat daromadlar boshqarmasiga o'zbekistonlik ta'sisci tomonidan ariza beriladi;
- qo'shma korxona tashkil etilayotgan vazirlik yoki Vazirlar Mahkamasi qarorining nusxasi ilova qilinadi.

Davlat daromadlari boshqarmasi qo'shimcha ta'sischilar, moliyalashtiruvchi banklar haqidagi ma'lumotni so'rashlari mumkin. Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokida korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishga haqlidirlar. O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalarda chet ellik investorning aksiya (pay) ulushi Nizom (ustav) jamg'armasining kamida 30 foiz qismini tashkil qilishi shart.

Qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risida berilgan barcha arizalar qonun doirasida hal etiladi. Agar topshirilgan hujjatlarda respublika qonunlariga zid keladigan holatlar mavjud bo'lsa, rad etiladi.

Buning uchun ta'sischilardan quyidagi hujjatlarni taqdim etish tavsiya etiladi:

- o'zbekistonlik ta'sisci tomonidan Moliya vazirligi qoshi-dagi davlat daromadlar boshqarmasiga yozma ravishda ariza;
- qo'shma korxona tashkil etayotgan vazirlik yoki Vazirlar Mahkamasi qarorining nusxasi;
- ta'sis shartnomasini notarial idoralar tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- Nizom (ustav).

Agar qo'shma korxonaning filiali tashkil etilayotgan bo'lsa, filial haqidagi nizom ham taqdim etiladi.

## *2.6. Qo'shma korxonaning tugatilishi*

Qo'shma korxonalar tugatilishi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyul 336-sonli qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Quyidagi holatlarda qo'shma korxona faoliyati to'xtatiladi:

1. Nizomda qayd etilgan faoliyatning qo'pol ravishda buzilish holatlari yuzaga kelganda.

2. Korxona ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab 1 yil mobaynida o'z faoliyatini boshlamagan taqdirda.

Tashkil etilgan qo'shma korxonaga ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan rasmiy ravishda ogohlantirish xati yuboriladi. So'nggi bir oy muddat ichida ogohlantirishda ko'rsatilgan uzilishlar bartaraf etilmasa, xo'jalik sudiga murojaat etiladi va xo'jalik sudi qarori bilan qo'shma korxona davlat ro'yxatidan chiqariladi.

Qo'shma korxona tugatilishida ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagi hujjatlar topshiriladi:

- qo'shma korxonani davlat ro'yxatidan chiqarish to'g'risidagi ta'sischilar arizasi;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona yuqori organining korxonani tugatish to'g'risidagi qarori;
- xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonaning tugatilganligi to'g'risida matbuotda e'lon berilganligini tasdiqllovchi hujjat;
- bank hisob-kitob hujjatlari, shu jumladan, valyuta schetlari yopilganligini tasdiqllovchi hujjatlar;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi tugatilgan korxonaning muhrlari va shtamplari yo'q qilinganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi organlarining ma'lumoti;
- korxonaning yuqori organi tomonidan tasdiqlangan tugatish balansi;
- soliq organlarining soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha korxona qarzları bor-yo'qligi haqidagi tugatish balansini tekshirish yuzasidan ma'lumotnomasi;
- qo'shma korxonalarining tugatilishi jarayonida korxona boshqaruvin hay'ati tomonidan tugatish komissiyasi tuziladi. Komissiya tarkibini shakllantirishda ta'sischilardan teng miqdorda vakillar taklif etiladi.

Tugatish komissiyasi korxona boshqaruvin hay'atiga tugatish balansini taqdim etadi. Tugatish balansiga qo'shma korxonaning amortizatsiya ajratmasi chegirib tashlangan holatdagi barcha kapitali qiymati kiritiladi. Qolgan kapital ta'sischilarning ulushiga qarab mos ravishda taqsimlanadi.

Agar ta'sischilardan biri mulkchilikning davlat shaklidagi korxona yoki davlat ulushi ishtirok etgan deb hisoblangan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona bo'lsa, tugatish balansini tuzib chiqishda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi yoki uning hududiy bo'limlari bilan kelishishlari lozim.

Qo'shma korxonalar va korxonalar davlat reyestridan chiqarilgan kundan boshlab tugatilgan hisoblanadi.

Ro'yxatdan chiqarilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika departamentiga, Davlat Soliq qo'mitasiga va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga bu haqda ma'lum qilishi kerak.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo'shma korxona tushunchasi va uni tashkil etish zarurati.
2. Qo'shma korxonaning asosiy vazifalari.
3. Qo'shma korxona ta'sischilar.
4. Ta'sis shartnomasi mazmuni.
5. Ta'sischilar manfaatlari.
6. Qo'shma korxonani ro'yxatdan o'tkazish qoidalari.
7. Qo'shma korxonaning faoliyat yuritish tartibi.
8. Qo'shma korxonaning tugatilishi.

### III bob

## Qo'shma korxonalar faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholash

---

### *3.1. Qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga iqtisodiy baho berish*

Qo'shma korxonalar tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga asosiy fondlar uchun sarflangan kapital mablag'lar, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan joriy xarajatlar, shu jumladan, bank kreditlari va ijara olingan qurilmalarga oldindan to'lovlar kiradi. Har bir ta'sischi xarajati miqdori qo'shma korxonaning moliya va material mablag'larga ehtiyoji ularning nizom jamg'armasidagi ulushiga qarab belgilanadi.

Nizom jamg'armasi — bu ta'sischilar tomonidan belgilangan qo'shma korxona ishlab chiqarish faoliyatini olib borish uchun talab etiladigan kapital sarf. Bu jamg'arma tomonlar mablag'lari va qo'shma korxona tomonidan olingan uzoq muddatli kreditlar dan tashkil topadi.

Nizom jamg'armasini aniqlashda ta'sischilar tomonidan hal etiladigan asosiy masalalarga quyidagilar kiradi:

— ta'sischilar jamg'armasini qiymat jihatidan baholash;

— Nizom jamg'armasini kengaytirish imkoniyatlari va manbalari, faoliyatning boshlang'ich bosqichi va nizom fondidagi ta'-sischilar ulushi.

Qo'shma korxonalarda tomonlarning nizom jamg'armasidagi ulushini baholashda bir necha holatlar:

— ta'sischilar tomonidan qo'shilgan imorat, inshoot va infratuzilma qiymati;

— ta'sischilar tomonidan qo'yilgan yer, suv va boshqa tabiiy manbalar qiymati;

— qo'shma korxonaga o'tkazilgan mashina qurilmalar va boshqa mulklar qiymati va hokazolar nazarda tutilgan.

Qo'shma korxonaning normal faoliyati uchun yaroqli bo'lgan mashina va qurilmalar, transport vositalari va boshqa mulklar baholanib, nizom jamg'armasi tarkibiga kiritiladi. Baholashda asosiy vositalarning jismoniy va ma'naviy eskirishiga alohida e'tibor beriladi.

Chet el investori ta'sis shartnomasiga asosan o'z ulushi badalidan texnika va texnologiya, xomashyo olib kelish, zarur holatlarda esa bularning qiymatini pul shaklida qo'yish majburiyatini olishi mumkin.

Masalan, quyida «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdagি aksiyadorlik jamiyatи shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasing nizom jamg'armasi tarkibi aks ettirilgan:

Fondning aksiyadorlik ulushi 3.750.000 AQSH dollariga teng baholangan, uning so'mdagi ekvivalenti 192.000.000 so'm. Ushbu mablag' evaziga quyidagi mashina va uskunalar sotib olingan:

- Trepalnaya mashina — (Xitoy) — 1 dona;
- Chesalnaya mashina — (Xitoy) — 35 dona;
- Lentochnaya mashina — (Yaponiya) — 4 dona;
- Mashina simpleks — (Xitoy) — 8 dona;
- Kolsevaya rama — (Xitoy) — 36 dona;
- Avtokoner — (Yaponiya) — 7 dona;
- Sifat nazorati laboratoriysi — (AQSH) — 1 dona.

Mahalliy korxonaning ulushi 3.000.000 AQSH dollariga teng baholangan, uning so'mdagi ekvivalenti 153.600.000 so'm.

Ushbu mablag' tarkibi ta'sischilar tomonidan yaroqliligi tan olingan va kelgusida foydalanish imkoniyati bo'lgan asosiy vositalar qiymatidan tashkil topgan.

Korxonaning aksiyadorlik ulushi 3.000.000 AQSH dollariga teng baholangan, uning so'mdagi ekvivalenti 153.600.000 so'm.

Shu jumladan:

- Trepalnaya mashina — 24 dona;
- Chesalnaya mashina — 40 dona;
- Lentochnaya mashina — 14 dona;
- Rovnichnaya mashina — 12 dona;
- Pryadilnaya mashina — 105 dona;
- Motolnaya mashina — 8 dona;
- Snovalnaya mashina — 3 dona;
- Shlixtovalnaya mashina — 2 dona;
- To'quv stanogi — 470 dona;
- Yaroqsiz mahsulotni hisobga oluvchi mashina — 6 dona;
- Transformator — 5 dona;
- Ventlyatsiya — 7 dona;
- Markaziy remont ustaxonasi — 1 dona;
- Qozonxona — 10 dona;

- Kompressor — 3 dona;
- Charxlash ustaxonasi — 1 dona;
- Avtobus — 4 dona;
- «Volga» avtomashinasi — 1 dona;
- «Espero» avtomashinasi — 1 dona;
- Traktor — 2 dona;
- «KamAZ» avtomashinasi — 1 dona;
- Karo — 1 dona;
- Imorat, shu jumladan, hovlisi bilan:
- Markaziy ombor — 1 ta;
- Yong'in xavfsizligi posti — 1 ta.

Bundan tashqari, ular tarkibiga jami qiymati 2.300.000 AQSH dollari, so‘mdagi qiymati 117.760.000 so‘m hisoblangan, xom ashyo va ishlab chiqarish chiqitlari, tayyor mahsulot va boshqa iste’mol tovarlari ham kiritilgan.

Uchinchi ta’sischining ulushi 700.000 AQSH dollari yoki so‘mdagi qiymati 35.840.000 so‘mni tashkil etadi.

Tashqi investor o‘z ulushini pul ko‘rinishida, texnologiya holatida taklif etishi mumkin.

### *3.2. Qo‘shma korxonalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning uslubiy qoidalari*

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida har bir korxona va firma oldida kelgusida qanday rivojlanish muammosi turadi. Bu muammoning hal etilishidagi bosh maqsad fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir. Bu muammolarni hal etish uchun har bir mamlakat, har qanday davlat investitsion faoliyatni kuchaytirish hisobiga iqtisodiyotda chuqr tarkibiy o‘zgarishlarga erishishga harakat qiladi. Buning uchun:

- mavjud mablag‘larni ishlab chiqarishning infratuzilmasini, transport va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishga sarflash;
- xalq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan inshootlar qurilishini boshlash;
- iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantiruvchi huquqiy tizim yaratish muhimdir.

Shuning uchun chet el sarmoyasi ishtirokida qo'shma ishlab chiqarish korxonalarining tuzilishini har tomonlama rag'batlan-tirish, xususiylashtirilgan korxonalar aksiya paketlarining kamida 1/4 qismini chet ellik investorlar tomonidan sotib olinishiga erishish muhimdir. Bu sarmoyalarni jalb etish va undan foydalanish ko'p jihatdan uning samaradorligini aniqlash usulini yaratish bilan bog'liq bo'ladi.

Bu yerda baholashning asosiy mezoni tanlangan loyiha bo'yicha ma'lum bir davrda olinadigan iqtisodiy samara hisoblanadi. Ushbu davrga to'g'ri keladigan iqtisodiy samara (Si) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Si = Tt - Xt.$$

Bu yerda:  $Tt$  — t davrga hisoblangan xo'jalik faoliyatining natijasi qiymat ko'rinishda,  $Xt$  — t davrga qo'shma korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish sarflari qiymat ko'rinishida.

Korxona va firmalarda iqtisodiy samaradorlik ma'lum bir yangi texnika-tehnologiyani joriy etish, modernizatsiya qilish, yangi turdag'i mahsulot yaratish, ishlab chiqish, tayyorlash va foydalanish jarayonida yuzaga keladi.

Xalqaro doirada iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda: sof daromad, rentabellik, ichki samaradorlik koeffitsiyenti, kapital mablag'lari sarfini kamaytirish muddati, zararsizlik normasi kabi ko'rsatkichlardan foydalanadi. Chet ellik sheriklari bilan ochilgan qo'shma korxonalar tashkil etilishining samaradorligini aniqlashda o'tkazish koeffitsiyentidan foydalaniladi. U quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$t = \frac{1}{(1 + En) \cdot tp - 1}.$$

Bu yerda:

$tp$  — hisob yili;

$t$  — yil, hisobot yiliga to'g'ri keladigan xarajat va natijalar.

O'tkazish koeffitsiyenti  $t$  — o'z navbatida diskont koeffitsiyenti deb ham yuritilishi mumkin. Ko'p holatlarda u kapital mablag'-larning normativ samaradorlik koeffitsiyentiga tenglashtiriladi ( $En$  q 0,1).

Qo'shma korxona iqtisodiy samaradorligini aniqlaganda ikkala tomon manfaatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bu yerda

ayrim hollarda chet ellik hamkorlar sarmoyani kredit hisobiga tashkil etadi. Shuning uchun samaradorlik darajasi kreditni daromaddan kelib chiqishi yoki bir so‘z bilan aytganda, kreditning o‘rtacha darajasi past bo‘lmog‘i lozim.

Hisobot davriga qo‘shma korxonaning qiymat ko‘rinishdagi daromadlari quyidagi formula orqali aniqlanadi (Tt):

$$Tt = \sum_{t=tk}^{th} Tt \cdot at.$$

Bu yerda:

Tt — hisob davrining t yiliga qiymat ko‘rinishidagi natija;

th — hisob davrining boshlang‘ich yili;

tk — hisob davrining oxirgi yili.

at — hisob davrining amortizatsiya ajratmasi.

Qo‘shma korxona tashkil etishning iqtisodiy jihatdan asoslanishi.

Hisobot yilining boshlang‘ich ishlab chiqarish davri sifatida loyihani moliyalashtirish boshlangan davr olinadi. Shu jumladan, ilmiy izlanishlar olib borilgan davr ham hisoblanadi.

Oxirgi yili bu mahsulotlarning yangilanishi normadagi (rejadagi) davriga mos keladi.

Qo‘shma korxonalarda xo‘jalik faoliyati natijalarini qiymat jihatidan baholashda asosiy va yondashma natijalar yig‘indisi hisobga olinadi.

Asosiy faoliyat natijalari sifatida mahsulot ishlab chiqarish sotishdan kelib tushgan tushum bo‘lsa, yondashma natijalar boshqa tushumlar, shu jumladan, bank krediti foizi, olingan jarima, peniya, asosiy fondlarni chiqarib tashlash hisobiga olingan tushumlar kiradi.

Daromad tarkibiga asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash uchun ajratilgan qismi ham kiradi, chunki u vositalardan xizmat qilish davrida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi.

Qo‘shma korxonalar tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisobot davriga quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Xt = \sum_{t=tk}^{ik} Kt \cdot at = \sum_{t=tk}^{ik} .$$

Bu yerda:

Xt — ma'lum davrga barcha manbalar sarfi (xarajat) miqdori;  
at — t yiliga asosiy fondlarni yangilash uchun ajratilgan amortizasiya ajratmasi qiymati hisobga olingan holda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning joriy sarflari;

Kt — t davriga doimiy sarflar. Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan doimiy xarajatlar;

Shunday holatlar bo'ladiki, hisobot davri oxiriga kelganda asosiy fondlardan kelgusida ham foydalanish mumkin bo'lib qoladi. Bunda likvidatsiya qiymati qoldiq qiymat sifatida yuritiladi.

Joriy va doimiy xarajatlarni aniqlash iqtisodiy samaradorlikni baholashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun shunday hisob joriy etish kerakki, ayrim sarflar qayta hisobga olinib qolmasin. Shu maqsadda doimiy sarflar tarkibi ko'rsatib o'tilgan:

- loyiha, texnologik, konstruktorlik, eksperimental va ilmiy izlanish sarflari;
- yangi tovarning tajriba nusxasi, maketi va modelini ishlab chiqish xarajatlari;
- asosiy vositalar, qurilmalarini sotib olish, keltirish, joylashtirish, ishga tushirish sarflari;
- korxonani qurish, rekonstruksiya qilish uchun zarur maydonlar va asosiy fondlarning boshqa elementlari qiymati;
- aylanma mablag'larni to'ldirish qiymati;
- yer holati yomonlashuvi va ekin maydonlar yo'qolishi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha sarflar;
- ekologik oqibatlarni qoplash sarflari;
- ijtimoiy (sotsial) infratuzilma yaratish bilan bog'liq bo'lgan sarflar.

Texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash uni loyihalashtirish, investitsiyalash oldidan bo'ladigan barcha ishlab chiqarish xarajatlari qo'shma korxonalarda davr xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Qo'shma korxonalarda foya sotishdan tushgan tushumdan ishlab chiqarish xarajatlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. U quyidagi formulada hisoblanadi:

$$Ft = Tst - Xt.$$

Bu yerda:

Ft — mahsulot ishlab chiqarish va sotish evaziga olingan foya;

Tst — qo'shma korxonalarda mahsulotni sotishdan tushgan tushum;

Xt — qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari.

Qo'shma korxona mahsulotining to'la tannarxi barcha turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qilingan joriy sarflar va realizatsiya qilinmagan xarajatlar yig'indisidan iborat.

Samaradorlikni aniqlashda sotishdan olingen daromaddan tashqari realizatsiya bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun qo'shma korxona balans foydasini aniqlashda korxona daromadlaridan barcha xarajatlarni chiqarib tashlash zarur. Qo'shma korxonalardan balans foydadan zaxira fondi va boshqa fondlarga ajratma chegirib tashlangandan so'ng soliq olinishi mumkin bo'lgan foyda topiladi:

$$F_{gt} = F_{bt} - Z_t - F_{at}.$$

Bu yerda:

$F_{gt}$  — t yilga qo'shma korxonalarda soliqqa tortiladigan foyda;

$Z_t$  — zaxira fondiga ajratma;

$F_{at}$  — qo'shma korxonaning t davrida fan va texnikani taraqqiy ettirish fondiga ajratma;

$F_{bt}$  — qo'shma korxonaning t davriga balans foydasi.

Qo'shma korxonalarda sof foyda balans foydadan davlat byudjetiga soliq summasini chegirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$F_s = F_{bt} - F_{gt}.$$

Bu yerda:  $F_s$  — sof foyda.

Qo'shma korxona xo'jalik faoliyati iqtisodiy samaradorligini (si) aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S_i = \sum_{t=ik}^{ik} (F_{st} + a_t + L_t - K_t) a_t.$$

Bu yerda:

$F_{st}$  — qo'shma korxonaning t yilgi sof foydasi;

$a_t$  — t davrga amortizatsiya ajratmasi;

$L_t$  — t davrda chiqarib tashlanayotgan asosiy fondlarning (likvidatsiya qilish qiymati) qoldig'i;

Kt — t davrga doimiy sarflar (kapital).

Qo'shma korxonalar iqtisodiy samaradorligini keng doiralarda hisoblashimiz mumkin:

- qo'shma korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlarining loyihaga mos kelishi;
- eng qulay joy tanlanishi;
- ishlab chiqarish navbatining maqbul tuzilishi tanlab olinishi;
- korxona maqbul quvvatining aniqlanishi;
- bir necha manbalar bo'yicha moliyalashtirilgan kapital sarflarni taqqoslash natijalari;
- harakatdagi korxonada kapital mablag'lar joriy etish qarorini qabul qilish tartibi;
- asosiy fondlar yangilanish va chiqarib tashlash muddati masalalarini o'rganish;
- turli texnologik jarayonlarni taqqoslash;
- qurilmani sotib olish yoki ijaraga olish qulayligining samaraliligini taqqoslash;
- korxona qiymatini taqqoslash va h.k.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo'shma korxonalarda nizom jamg'armasi va uni shakllantirish manbalari.
2. Nizom jamg'armasidagi tomonlar ulushi.
3. Qo'shma korxona iqtisodiy samarasi va uni aniqlash uslubi.

## IV bob

# Qo'shma korxonalarda moddiy-texnika ta'minoti va marketing

---


---

### **4. 1. Qo'shma korxonalarda moddiy texnika ta'minoti va mahsulotlarni sotish**

Qo'shma korxonalarining samarali faoliyat olib borishida moddiy ta'minot alohida o'rinni tutadi. Qo'shma korxonalarda moddiy ta'minot o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u ichki va tashqi bozor doirasida **amalga oshiriladi**.

Ichki bozor uchun ta'minotda va sotishda quyidagi imkoniyatlar hisobga olinadi:

Qo'shma korxonalar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo va materiallar, yarim fabrikatlar va boshqa turdag'i manbalarni quyidagi ta'minot tashkilotlaridan oladi (1-chizmaga qarang).



**1-chizma.** *Qo'shma korxonalarni material manbalar bilan ta'minlash usullari.*

Birinchi ulgurji savdo orqali, ya'ni ulgurji savdo shoxobchalar, davlat ta'minot korxonalari, firma do'konlaridan to'g'ridan-to'g'ri sotib olish orqali.

Tarmoqning tegishli ta'minot tashkilotlari orqali ta'minlash tizimi tarkibiga mahalliy tashkilotlar kiradi.

Qo'shma korxonalarini ulgurji savdo shoxobchalari orqali ta'-minlashda hisob-kitoblar kelishilgan baholarda amalga oshiriladi. Agarda texnik resurslar chet ellardan shartnoma asosida keltiriladigan bo'lsa, hisob-kitob valyuta ko'rinishida amalga oshiriladi. Ta'sischilar valyuta turini tanlash huquqiga egadirlar. Chet el bozorini import tovarlar bilan ta'minlash, tashqi bozorda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon mustaqil bo'lishi yoki ma'lum tashqi savdo tashkiloti bilan shartnoma asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qo'shma korxonalar tayyor mahsulotlarini turli bozorlarda erkin narxlarda sotadilar. Xorijiy ta'sischi mahsulotning o'ziga tegishli bo'lgan qismini to'g'ridan-to'g'ri tashqi bozorga olib chiqib ketishga haqlidir.

#### ***4.2. Qo'shma korxonalarda xo'jalik faoliyatini mexanizmi***

Qo'shma korxonaning xo'jalik faoliyatini yuritish mexanizmi — ushbu korxonalarning faoliyat ko'rsatishdagi tartibga soluvchi barcha iqtisodiy vositalar, dastaklar va rag'batlantirish usullari yig'indisidir. Qo'shma korxonaning xo'jalik faoliyati mexanizmi ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'z tarkibiga davlatning makroiqtisodiy doiradagi tartibga soluvchi vositalari to'plamini hamda qo'shma korxonaning o'z moliya xo'jalik faoliyati darajasidagi barcha vositalarni qamrab oladi. Bularga valyuta, moliya-kredit, hisob, bojxona va baho vositalari kiradi.

Ushbu mexanizm quyidagi talablarga javob berishi shartdir:

- chet el investorlari va chet el investitsiyasiga qulay investitsion muhit yaratish;
- yetakchi sohalarning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlashda ko'maklashish.

Shuning uchun yuqoridagi mexanizm yetarli darajada xo'jalik faoliyati sharoiti o'zgarishiga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bu yerda olib borilgan barcha tadbirlar ma'muriy xarakterga ega emas, balki iqtisodiy xarakterga ega bo'lishi shart.

Ushbu mexanizmning alohida xususiyati va ahamiyati qo'shma tadbirkorlik faoliyati olib boruvchilarining milliy va xalqaro manfaatlarini ifodalashlari shart.

### **4.3. Marketing**

Qo'shma korxonalarda marketing bozordagi jarayonlarni doimiy ravishda hisobga olib boradi.

Marketing asosiy bozor holatini o'rganish va oldindan bahlash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo'sinda katta foyda olishni tashkil etishdir.

Qo'shma korxonalarda marketing maqsadi — bu ishlab chiqarishni bozor talablariga moslashdir. Marketingning asosiy funksiyasi: talabni, bahoni shakllantirish masalalari, reklama, sotishni rag'batlantirishni o'rganish; tovarlarni saqlash, yetkazib berish.

Qo'shma korxonalarda marketing bir qator funksiyalarni bajaradi.

Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- qo'shma korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga bozor talabini to'la o'rganish;
- qo'shma korxona mahsulotlari bahosini shakllantirish;
- reklama faoliyatini tashkil etish;
- mahsulotlar realizatsiyasini rag'batlantirish;
- tovarlarni saqlash va iste'molchilarga yetkazib berishni tashkil etish;
- qo'shma korxona xodimlarini boshqarish;
- iste'molchilarga xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish.

Qo'shma korxonalarda marketing xizmatiga alohida e'tibor bermoq lozim. Chunki ular ichki bozorni o'rganibgina qolmay, balki tashqi bozor imkoniyatlarini ham hisobga oladilar.


Qo'shma korxonalarda marketing 2 chizmada aks ettirilgan vazifalarni bajarish jarayonida ichki va tashqi bozorni chuqur o'rganadi. Bozorni o'rganishda uchta keng tarqalgan usuldan foydalaniladi.

**Birinchi usul:** bu usulda bozordagi holat bo'yicha yakuniy qarorni hakamlar hay'ati qabul qiladi. Hakamlar hay'ati qaror qabul qilishda mahsulot sotishni boshqaruvchilarning ma'lumotlariga asoslanadi.

Bundan tashqari, zaruriy ma'lumotlarni sotish agentlaridan olishlari ham mumkin. Olingan ma'lumotlar davlat statistika organlari ma'lumotlariga taqqoslanadi, tahlil etiladi va shu asosda qo'shma korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgarishi yuzasidan hakamlar fikri e'lon qilinadi.

**Ikkinci usulda** tashqaridan jalb etilgan mutaxassis-maslahatchi fikriga tayaniladi. Bu yerda ularning maslahatlariga tayanib korxona sotish bo‘limi rejasiga tuzatmalar kiritiladi.

**Uchinchi usuldan**, odatda, buyurtmachilar soni cheklangan holda foydalaniladi. Bu yerda ularning ehtiyojlarini, talablari va noroziliklarini o‘rganish maqsadida so‘rovlар o‘tkaziladi.



## 2-chizma.

So‘rov natijalari chuqur tahlil etilishi evaziga qarorlar qabul qilinadi.

Marketing tadqiqotlari barcha usullarining maqsadi bozorda talab va raqobatni o‘rganishga qaratilgan.

### O‘zini-o‘zi tekshirish yuzasidan savollar

1. Qo‘shma korxonalarda moddiy-texnika ta’mintosi.
2. Qo‘shma korxonalarda mahsulotlarni sotish.
3. Qo‘shma korxonaning xo‘jalik faoliyatini yurgazish mexanizmi.
4. Qo‘shma korxonalarda marketing xizmati.

## V bob

### **Xalqaro mehnat taqsimoti va boshqaruv tizimi**

---

#### ***5.1. Qo'shma korxonalarda xalqaro mehnat taqsimoti***

Qo'shma korxona faqatgina mulkning baynalminallashuvi va investitsiyalash mexanizmining vositasi bo'lib qolmay, xalqaro mehnat taqsimoti yuzaga kelishining aniq bir shakli hamdir.

Qo'shma korxona faoliyati ham barcha tadbirkorlik faoliyati singari jonli mehnatni iqtisod qilish va foydali samara olishga qaratilgan.

Bu yerda absolyut imkoniyatga ega bo'lish va taqqoslangan imkoniyat prinsipidan foydalaniladi.

**A) Absolyut imkoniyatga ega bo'lish prinsipi.** Bu prinsipning mohiyati shundan iboratki, sarmoyani ishlab chiqarishi samarasiz bo'lgan davlatlardan yuqori foyda beruvchi davlatlarga qayta joylashtirishdir. Buning oqibatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi, ishlab chiqarish yiriklashuvida optimal darajaga erishiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning yiriklashuvi samarasiga vaqtadan yutish samarasi ham qo'shiladi. Ishlab chiqaruvchi aniq ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etish hisobiga xarajatlarning kamaytiradi va absolyut imkoniyatga ega bo'ladi. Xalqaro tovar almashuvi yuqori darajaga yetganda, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilari boshqa ishlab chiqaruvchilarga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishida, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishida milliy va baynalminal qiymat orasidagi farq evaziga katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Qo'shma korxona ishtirokchilari ishlab chiqarish omillarining kombinatsiyalashuvi va o'zaro almashinuv evaziga ham xarajatlarning absolyut iqtisodiga erishadilar.

So'nggi yillarda ko'pchilik tovarlar bo'yicha mehnat unum-dorligi milliy darajasi sezilarli darajada kamaydi. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda alohida tovarlar ishlab chiqarish bilan yirik partiyalni tovarlar ishlab chiqarish bir-biriga yaqinlashdi. Bu xalqaro mehnat taqsimotida absolyut imkoniyatga ega bo'lishni bildirmaydi.

Qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tovarlar assortimenti va hajmi bo'yicha to'g'ri tanlovnii qabul qilish sarmoyani, materiallarni yetkazib berish va sotishning korxona doirasida maqbul yo'naliishlarda yo'naltirish, mehnatni absolyut iqtisod qilishga erishishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ayrim korxonalarini absolyut imkoniyatga ega bo'limgan holatida xalqaro mehnat taqsimotida sezilarli samaraga erishish mumkin.

**B) Taqqoslangan imkoniyat prinsipi.** Bu prinsip mohiyati shundan iboratki, unda tashqi omil mexanizmlari ijtimoiy mehnatning iqtisodga ta'siri haqida to'la tasavvur beradi. Absolyut imkoniyatga ega bo'lish prinsipi ushbu nazariyaning ayrim holatlarining ko'-rinishi, xolos.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, xalqaro mehnat taqsimotida ulkan tuzilmaviy siljishlar, mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasini tez almashuvi va xalqaro taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya rivojlanishi, mehnat unumdarligi darajasining tenglashuvi bu prinsip ahamiyatini cheklamaydi. Sababi, har xil tovarlar bo'yicha milliy va xalqaro qiymat orasidagi farq, ilmiy-texnika taraqqiyoti va xalqaro mehnat taqsitmotiga bog'liq emas.

Yuqoridaagi jarayon milliy ishlab chiqarishning umumiyligi sa-maradorligi tenglashuviga olib keladi.

## *5.2. Qo'shma korxonalarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi*

Qo'shma korxonalar boshqaruvinning apparatiga qatnashchilar (ta'sischilar) umumiyligi yig'ilishi, boshqaruvinning hay'ati, direksiya va taftish komissiyasi kiradi (3-chizmaga qarang).

Qo'shma korxonalar boshqaruvining oliy organi ta'sischilar umumiyligi yig'ilishi hisoblanadi. Ta'sischilar umumiyligi yig'ilishining asosiy funksiyalari quyidagilar:


- boshqaruvinning hay'atini saylash;
- korxona hisobotlarini tasdiqlash.

Umumiyligi yig'ilishlar 2 xil bo'ladi: oddiy va ekstraordinar.

Oddiy umumiyligi yig'ilish yiliga bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Uning asosiy maqsadi yil yakuni bo'yicha hisobot berish va kelgusi yil vazifalarini belgilab olishdir.

Ekstraordinar yig'ilish favqulodda vaziyatlarda ayrim ta'sischilar talabi bilan chaqiriladi. Qo'shma korxonalar hisoboti —

bu umumiy balans, foyda (zarar) hisobi, foydani taqsimlash yoki zararni qoplash loyihasidir.



### *3-chizma. Qo'shma korxonalarini boshqarish tuzilmasi.*

Qo'shma korxonalar oliy organi funksiyasini boshqaruv hay'ati bajaradi.

Boshqaruv hay'ati qo'shma korxona faoliyati yuzasidan strategik rahbarlikni olib boradi.

Boshqaruv hay'ati korxonaning texnik taraqqiyoti va xo'jalik faoliyatini yuritish siyosatini ishlab chiqadi.

Mahsulot turlarini yangilash va modernizatsiya qilish masalalarini hal etadi.

Foydani taqsimlaydi.

Korxona fondlarini yaratish masalalarini hal etadi.

Mehnatga haq to'lash tizimini joriy etadi va takomillashtiradi.

Har bir ta'sisci boshqaruv hay'atida o'z vakiliga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, xohlagan vaqtida o'z vakilini chaqirib oladi va boshqasini tayinlaydi. Bu haqda oldindan sheriklarni xabardor qilib qo'yishlari shart.

Hozirgi tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv hay'ati a'zolari orasidan zaxira kadrlar saylab qo'yadilar.

Zaxiradagi kadrlar yig'ilishlarda qatnashadilar, ammo ovozga ega bo'lmaydilar. Bu kelgusida ushbu nomzodlarning boshqaruv hay'atiga a'zo bo'lishi va ishni to'la olib ketishlariga yordam beradi.

Boshqaruv hay'ati faoliyatining asosiy natijalari — bu qarorlar qabul qilish jarayonidir.

Qarorlar qabul qilish jarayonining asosiy holati qo'shma korxona nizomida aks ettiriladi, ularga quyidagilar kiradi:

1. To'laqonli qarorlar qabul qilish bo'yicha a'zolarning umumiy soni.

2. Boshqaruv hay'atining vakolatlari.

3. Bir ovozdan yoki ko'p ovoz bilan hal etiladigan masalalarni aniqlash.

Shuni unutmaslik kerakki, boshqaruv hay'atining umumiy yig'ilishlarida ayrim shaxslar emas, balki kapital ovoz beradi. Umumiy yig'ilish qatnashchilari soni ta'sischilar ulushiga mos kelishi shartdir.

Qo'shma korxonalarining tezkor faoliyatiga rahbarlikni bosh direksiya yoki boshqaruvchi direktor amalga oshiradi. Bosh direktor boshqaruv hay'ati oldida qo'shma korxona faoliyatiga tezkor rahbarlikni ta'minlaydi.

Qo'shma korxona bosh direktori vakolatiga quyidagi vazifalar kiradi:

1. Joriy va istiqbolli topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash.

2. Boshqaruv hay'ati qarorlari bajarilishini nazorat etish.

3. Boshqaruv hay'ati tomonidan berilgan vakolat doirasida qo'shma korxona mulkidan, pul mablag'lardan samarali foy-dalanish.

4. Korxona nomidan shartnomalar tuzadi va bajarilishini ta'minlaydi.

5. Vakolati doirasida korxonaning barcha masalalarini himoya qiladi.

Agar direksiya va jamoa orasida o'ta muhim, hal bo'lmaydigan masala yuzaga kelsa, boshqaruv hay'atiga ko'rib chiqishga tavsiya etiladi.

Qo'shma korxona faoliyatini nazorat qilib boruvchi organ — bu taftish komissiyasi hisoblanadi.

Taftish komissiyasi ta'sischilar yig'ilishi tomonidan saylana-di. Taftish komissiyasiga boshqaruv hay'ati tomonidan yillik hisobotni tekshirish va buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishni nazorat qilish vazifasi yuklatiladi. Yillik hisobot balanslarini nazorat etish davlat qonunlari doirasida amalga oshiriladi. Hisobotlarni sifatli rasmiylashtirishni ta'minlaydi va boshqaruvning samarali vositasi sifatida foydalaniladi.

Boshqaruv hay'ati yoki bosh direktor xohlagan bir tomon (O'zbekiston yoki chet mamlakat) vakili bo'lishi mumkin. Masalan, «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasida bosh direktor vakolati bir (1) yil bo'lib, ushbu lavozimiga jamg'arma nomidan respublikamiz fuqarosi X.Abdulhakimov, moliya direktori lavozimiga jamg'arma nomidan A.Alqarova, moliya direktori muovini lavozimiga jamg'arma nomidan T.Rustamov tayinlangan.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo'shma korxonalarda xalqaro mehnat taqsimoti.
2. Qo'shma korxonalarda boshqarish qoidalari.
3. Boshqaruv hay'ati vazifalari va vakolatlari.
4. Qo'shma korxona bosh direktori vazifalari va vakolatlari.
5. Qo'shma korxonalarda boshqarishning tashkiliy tuzilishi.
6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va uning vakolatlari.

## VI bob

# Qo'shma korxonalarda moliya va kredit mexanizmi

---

### *6.1. Qo'shma korxonalarda soliq va soliqqa tortish*

Qo'shma korxonalarini soliqqa tortish tizimi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Qo'shma korxonalarda soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarda chet el sarmoya-dorining ulushi 300 mingdan 1 million AQSH dollarigacha bo'lsa, foyda solig'ining stavkasi — 16 foiz qilib belgilanadi. 1 milliondan yuqori bo'lsa, 12 foiz qilib belgilanadi.

Xorijiy sarmoyali korxonalarga 2004-yil uchun quyidagi soliq stavkalari belgilangan. Nizom fondida xorijiy sarmoyaning ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan nizom fondining hajmi 1 million va undan ko'p AQSH dollari ekvivalentligi miqdorida bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari uchun 16 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga asosan qo'shma korxonalar daromad (foyda) solig'idan tashqari, quyidagi turdag'i soliqlarni to'laydi:

- a) qo'shilgan qiymat solig'i;
- b) aksiz solig'i.

Bundan tashqari, mahalliy boshqaruv organlari o'z hududida mahalliy soliqlar belgilashi mumkin. Qonunda soliqqa tortiladigan daromad (foyda) miqdori va to'lov stavkasi belgilanib qo'yiladi. To'lov stavkasini belgilashda samaradorlik darajasi va chet ellik hamkorning ustav kapitalidagi ulushi hisobga olinadi.

Qo'shma korxona 15-martdan kechikmay mahalliy moliya organlariga yillik buxgalteriya balansini topshirishi shart.

Hisobot Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklda topshiriladi. Bundan tashqari, moliya organlari talabiga ko'ra, foyda solig'ini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa materiallar ham tavsiya etilishi mumkin.

## **6.2. Qo'shma korxonalarda bahoni shakllantirish**

Qo'shma korxonalar faoliyatidagi baholarni shakllantirish muammolarini ikki guruhga bo'lamiz.

**Birinchi guruh** muammolar ta'sischilar orasida yuzaga keldigan muammolar: nizom fondidagi ulushni baholashdagi muammolar, tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlarni o'zaro almashuvdagi muammolar va hokazo.

Qo'shma korxonalar orasidagi **ikkinchchi guruh muammo** — bu qo'shma korxona tomonidan uchinchi shaxsga o'tadigan baho muammosidir.

Yuqoridagi barcha holatlarda quyidagi ko'p tomonli, har xil darajadagi qiymatga asoslanish kerak, ya'ni jahon bozoridagi shartnoma baholari, ichki bozordagi baholar va qo'shma tadbir-korlikda qatnashuvchilarning individual xarajatlari.

Ichki va tashqi jahon bozori baholarida yagona aniq tartib yoki bir mezon mavjud emas, shuning uchun baho muammosini hal etishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan har ikki guruhdan ham foydalanish mumkin.

Ta'sischilarning nizom kapitalidagi ulushini quyidagi tartibda aniqlab borish mumkin:

**birinchidan**, qo'shma korxonaning mulkka nisbatan egalik huquqi (yer, suv va boshqa turdag'i tabiiy resurslar, imorat, inshoot, mashina va qurilmalar, ilmiy izlanishlar natijasi, yangiliklar yoki kashfiyotlardan foydalanish);

**ikkinchidan**, qo'shma korxonaga material boyliklarni mulk shaklida o'tkazib berish;

**uchinchidan**, pul ko'rinishidagi ta'sischilar mablag'lari (milliy valyuta yoki erkin konvertatsiyalangan valyuta hisobida).

Barcha holatlarda ulushlarni pul shaklida baholashda aniq bir baho yoki kurs mutanosibligi evaziga bu muammolarni xal etish mumkin.

Bu yerda asosiy tamoyil kelishilgan asosda baholash hisoblanadi. Har bir aniq holatda ushbu tamoyildan alohida ko'rinishda foydalaniladi. Masalan, yer uchastkasi ko'rinishidagi hissa yillik yerdan foydalanish huquqi qiymatini bizning mamlakatda tomorqadan foydalanish muddatiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Tabiiy resurslarning pul ko'rinishidagi baholash tizimi hali to'la tartibga solinmagan. Yer haqidagi qonunlarda bular yetarli darajada ochib berilmagan.

Yermi baholashning asosiy omillari quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. Yer rentasini hisobga olgan holda yig‘ilgan daromad.
2. Qo‘shma korxona ushbu yer maydoni foydalanish evaziga kutilayotgan zarar yoki foyda.

3. Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi.

4. Jahon bozoriga ushbu mahsulotni chiqarayotgan davlatlarning tabiiy sharoitga mos keladigan bahosi.

Qo‘shma korxona o‘ziga zarur bo‘lgan mahsulotlarning iste’-molchisi hisoblansa, birinchidan, o‘zi joylashgan bozordagi bahoga, ikkinchidan, tashqi bozordagi aniq va jahon bozori bahosiga asoslanishi mumkin.

Agar korxona to‘g‘ridan-to‘g‘ri jahon bozoriga chiqsa, ishlab chiqarish vositalarini sotib olishda ulgurji savdoning qulay yo‘llarini tanlab oladi. Ta’midot organlari orqali yetkazib berilsa, tashqi savdo bahosi orqali amalga oshiriladi.

Bahoni shakllantirishda xalqaro shartnoma va ichki bozor baholari asos qilib olinadi. Bularning orasida eng asosiysi jahon baholari bo‘lib, u mahsulotlar raqobatbardoshliliginigini rag‘batlan-tiradi hamda tashqi bozorga chiqishni ta’minlaydi.

Eksport baholari raqobatbardoshlilikni hisobga olib belgilana-di va bu baho o‘zida muomala xarajatlari bilan bir qatorda, bozorning iste’mol imkoniyatlarini ham aks ettiradi.

### ***6.3. Qo‘shma korxonalarda foyda va uning taqsimlanishi***

Foya yoki zarar qo‘shma korxonalarning moliyaviy natijasi hisoblanadi. Qo‘shma korxona balansi foydasi quyidagilardan tarkib topadi: boshqa realizatsiya jarayonlari evaziga olingan foyda, foydalanimagan daromad va zarar.

Mahsulot sotishdan olingan foyda mahsulotni sotish evaziga olingan tushumdan ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Boshqa faoliyat yuzasidan moliyaviy natija korxonadagi ortiqcha tovar material boyliklarini sotish evaziga olingan tushum, sanoat xususiyatiga ega bo‘lmagan xizmatlar, suv, gaz va elektr energiyasini tashqariga sotish evaziga olingan tushumlardan tashkil topadi.

Foydalanimagan daromad va zarar — bu olingan yoki to‘langan jarimalar, ularning foizlari, qimmatbaho qog‘ozlar sotishdan

olingen foyda yoki zarar, kutilgan kapital mablag‘lar evaziga olingen daromadlar, valyuta kursi orasidagi farq evaziga foyda yoki zarar, tabiiy ofatlar hisobiga yo‘qotish, to‘lov qobiliyati bo‘lмаган qarz-lardan voz kechish, o‘tgan davr hisobotlarini tekshirish natijasida yuzaga kelgan foyda yoki zararlar hisoblanadi.

Qo‘shma korxonalar balans foydasidan qonunda belgilangan tartib bo‘yicha ta’sis shartnomasi asosida foydalaniladi. Uning hisobidan zaxira, sug‘urta, ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyoti, jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan fondlar yaratiladi. Bank kreditlaridan foydalanganlik foizlari, foyda solig‘i to‘lanadi, korxona nizom fondi to‘ldiriladi.

Qo‘shma korxonaning balans foydasidan davlat byudjetiga to‘lovlar chegirib tashlashdan qolgan qismi ta’sischilar orasida ulushga qarab bo‘lib olinadi (dividend ko‘rinishida).

Chet ellik investorlarga foydadagi ulushi chet el valyutasida to‘lanishi nizomda kafolatlanadi. Chetga chiqarilgan tovardan tashqari, mahsulotlarning barchasi ichki bozorda sotiladi.

Qo‘shma korxonaning normativ hujjatlarida fondlar tizimi-ning soni va foydalanish maqsadlari aks ettiriladi. Zaxira fondi majburiy hisoblanadi. Qolgan fondlarni tashkil etish tartibi va ulardan foydalanish ta’sis hujjatlarida aks ettiriladi.

### Zaxira fondi

Qo‘shma korxonalarda zaxira fondi balans foydadan soliqqa tortilgunga qadar o‘z ulushidan tashkil topadi. Uning miqdori nizom fondining 25 foiziga yetgunga qadar zaxira fondiga ajratib boriladi.

Asosiy zaxira fondiga yillik ajratma miqdori ta’sis hujjatlarida belgilangan tartib bo‘yicha korxonaning birinchi faoliyat ko‘rsata boshlagan yildan amalga oshiriladi. Chunki belgilangan foyda darajasiga erishgunga qadar bir-ikki yil davlat byudjeti to‘lovlari-dan ozod etiladi.

Zaxira fondi ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan maqsadlarga sarflanadi.

Bundan tashqari, ta’sis hujjatlarida sarflangan mablag‘larning o‘rnini qoplash shartlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Korxona nizomida ko‘rsatilgan bo‘lsa, amortizatsiya fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va hokazo, boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.

## **Amortizatsiya fondi**

Qo'shma korxonalarda amortizatsiya fondi mahsulot tannarxining tarkibiga kiritilgan amortizatsiya ajratmalari hisobiga tashkil etiladi. Qo'shma korxonalar ming ta'sis hujjatlarida alohida shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, harakatdagi oddiy korxona kabi amortizatsiya ajratmalari ajratib boriladi.

Agar amortizatsiya ajratmasi mustaqil aniqlanadigan bo'lsa, ta'sis hujjatlariga tegishli mulkka oid amortizatsiya ajratilishi nizomi va uning aniqlash usuli qo'shib qo'yilishi shart.

Amortizatsiya ajratmasi qimmatbaho qog'oz ixtiyorida bo'ladi, zaruriyati bo'lganda nizom jamg'armalaridan kapitalni kengaytirish maqsadlarida foydalaniladi.

## **Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi**

Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi balans foydadan soliqqa tortilgunga qadar tashkil etiladi. Ushbu fondlarga ajratmalar normasi qo'shma korxona ta'sis hujjatlarida qayd etilishi lozim.

Yuqoridagi fondlarga ajratilgan mablag'lar asosan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ishlab chiqarishni kengaytirish;
- modernizatsiyalash;
- marketing xizmatini tashkil etish;
- yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan turli loyihalarni moliyalashtirish.

Quyidagi ilovada «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyat shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasida foydaning taqsimlanish tartibi berilgan (7-jadvalga qarang).

Korxona ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish yoki rekonstruksiya qilish uchun vaqtincha asosiy fondlarni ijara olish holatida emas, balki tijorat asosida jalb etadi. To'lash xatida jalb etilgan vaqtdagi qoldiq qiymati bo'yicha jalb etilgan fondlar xarajatlarda hisobga olinadi. Foydalaniib bo'lingandan so'ng ularning qoldiq qiymatlari joriy xarajatlar tarkibidan chiqarib yuboriladi.

## ILOVA

7-jadval.

### «Alisher Navoiy Interneshnl» yopiq turdagи aksiyadorlik jamiyatи shaklidagi O'zbek — Amerika qo'shma korxonasida foydaning taqsimlanishi

<b>Modda nomi</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>1</b>	<b>2</b>
<b>7.1.Foydaning taqsimlanishi</b>	<p>Barcha soliqlar, majburiy to'lovlar to'langandan va boshqa xarajatlar qilingandan keyin qoladigan har qanday foyda jamiyat mulkidir va jamiyatning ixtiyorida qoladi.</p> <p>Aksiyadorlar orasida tarqatilishi kerak bo'lgan jamiyatning foydasi va jamiyat o'zining soliqlari, majburiy to'lovlari to'langandan so'ng va reinvestitsiyani amalga oshirishdan keyin qilinadigan foyda bu dividendir.</p> <p>Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi foydani qay tarzda taqsimlash haqida qaror qabul qiladi.</p>
<b>7.2.Dividendlar</b>	<p>Jamiyat tomonidan aksiyalar bo'yicha to'lanadigan barcha dividendlar aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tasida har bir aksiyadorga tegishli aksiyalar soni va turiga munosib ravishda taqsimlanadi.</p> <p>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga qarab dividendlar yiliga kamida bir marotaba to'lanadi.</p> <p>Dividendlar pul shaklida, aksiyalar, qarz majburiyatları, obligatsiyalar va boshqa majburiyatlar yoki natura shaklida aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq ravishda kuzatuv kengashining tavsiyasi bilan to'lanadi.</p> <p>Dividendlar korxonaga so'mda to'lanadi. Agar amaldagi qonunlarda dividendlarni so'mda to'lash ko'zda tutilmagan bo'lsa, fond va Muhammad Iqbolga dividendlar AQSH dollarida to'lanadi.</p> <p>Fond va Muhammad Iqbolga so'mlarda to'lanadigan barcha dividendlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining dividendlar to'lanadigan sanada e'lon qilingan rasmiy valyuta ayirboshlash kursi bo'yicha hisoblanadi.</p> <p>Agar dividendlar fondga so'mda to'lansa va so'mning miqdori so'mda to'lov amalga oshirilgan sana bilan so'mni AQSH dollariga ayirboshlash sanasi o'tasidagi AQSH dollariga nisbatan kursi kamayadigan bo'lsa, u holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan fondga tegishi kerak bo'lgan AQSH dollaridagi so'mlar olinmaguncha so'm bilan dollar o'tasidagi nisbatning mana shunday kamayishini qoplash uchun so'mda qo'shimcha to'lovlар amalga oshirilaveradi.</p>

7.3.Zaxira fondi	<p>Jamiyat zaxira fondini vujudga keltiradi va amaldagi qonunlar yoki ushbu nizom talablariga muvofiq ravishda eng oz miqdorda minimal mablag' ajratilishi lozim bo'lsa, shunday mablag'ni ajratib turadi.</p> <p>Zaxira fondidan ushbu nizomga binoan zararlarni, qarzlarni qoplash, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunlarga rioya qilgan holda o'z aksiyalarini sotib olish hamda amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa maqsadlar uchun foydalilanadi.</p>
7.4.Boshqa jamg'armalar	<p>Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi boshqa jamg'armalarni vujudga keltirish hamda shu jamg'armalarga jamiyat daromadlaridan mablag' ajratish haqida qaror qabul qilinishi mumkin.</p>

Qo'shma korxonalarda texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash, loyihalashtirish investitsiyaoldi tadqiqotlari va boshqa ishlab chiqarishdan oldingi xarajatlar joriy xarajatlarda hisobga olinadi. Ayrim hollarda ko'rيلayotgan loyiha tarkibiga ekspertiza yo'li bilan baholangan xarajatlar kiritilishi mumkin.

Qo'shma korxonalarni kengaytirish va yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarish jarayonida asosiy shart xarajatlarni iqtisodiy jihatdan baholashdir.

Qo'shma korxonalarda foyda Ft sotishdan tushgan tushumdan sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

$$Ft = Vvt \cdot K + Vst - Xt.$$

Bu yerda:

Vvt — valyuta xarajati chegirib tashlangan holatdagi valyuta tushumi;

Vst — ichki bozorda mahsulot sotishdan olingan tushum;

K — xorijiy valyutani so'mga aylantirish koeffitsiyenti;

Xt — joriy yilda qo'shma korxona tomonidan sotilgan mahsulotning to'la tannarxi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rini turibdiki, foyda asosan ta'sischilarining aksiyalari evaziga dividendlar to'lash, zaxira fondi, fan va texnika taraqqiyotini rivojlantirish fondlariga ajratiladi. Boshqa maqsadlarga sarflash yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi faqat aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga berilgan.

## **Qo'shma korxona samaradorligini aniqlash**

Har qanday tadbirkorlik faoliyati yetarli darajada samaraga erishgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, iqtisodiy samaradorlik — bu faoliyat natijasining xarajatga nisbatidir. Bularga quyidagi xarajatlar kiradi: har xil manbalar uchun sarmoya va joriy sarflar.

Samara esa olingan har xil turdag'i samara. Samara, asosan, pul ko'rinishida aniqlanadi. Ularni taqsimlanishi esa samaradorlikning nisbiy ko'rsatkichini ifodalaydi.

Qo'shma korxonalar samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri qo'shma korxona balans foydasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik yuritish qo'shma korxona rahbarlaridan korxonaning o'tgan davrdagi moliyaviy holatini chuqur tahlil etishni va kelgusida uni yanada yuksaltirish strategiyasini ishlab chiqishni talab etadi. Maqsadi mavjud aktivlaridan oqilona foydalanish evaziga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorda o'z mavqeiga ega bo'lishdir.

Qo'shma korxonalarning moliyaviy hisoboti keng ma'noda olin-ganda imkoniyatli sheriklar bilan uzviy aloqani bosh manbai va vositachisi bo'lib xizmat qiladi. Hisobot ko'rsatkichlarining va korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatining to'g'ri tahlil etilishi sheriklarda ishbilarmonlik jarayonlarini birgalikda amalga oshirishga ishonch tug'diradi. Qo'shma korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil etishda axborot manbai bo'lib, korxona buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hisoboti olinadi. Qo'shma korxona balansi yordamida aniq bir davrdagi moliyaviy holat yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyati tug'iladi. Hozirgi kunda qo'shma korxonalar iqtisodiy faoliyatiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi:

— joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasi qo'shma korxona qarzini to'lash qobiliyati bilan qarz miqdori orasidagi nisbat orqali hisoblanadi, ya'ni:

$$K_{jl} = \frac{OM}{QM}.$$

Bu yerda:

K<sub>jl</sub> — joriy likvidlik koeffitsiyenti;

OM — aylanma mablag'lar, so'mda;

QM — qisqa muddatli majburiyatlar, so'mda.

Moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti — bu qarzga olingan kapitalni shaxsiy kapitalga nisbatidir:

$$Kmb = \frac{Qk}{Shk}.$$

Bu yerda:

Kmb — moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti;

Qk — qarzga olingan kapital.

Shk — shaxsiy kapital.

Mustaqillik koeffitsiyenti — bu shaxsiy kapitalning aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati:

$$Km = \frac{Shk}{AO'UQ}.$$

Bu yerda:

Km — mustaqillik koeffitsiyenti;

AO'UQ — aktivlar o'rtacha yillik qiymati.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti — bu shaxsiy kapital bilan uzoq muddatli qarzlar yig'indisi qiymatining aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati:

$$Kmb = \frac{Shk + UMQ}{AO'UQ}.$$

Bu yerda:

Kmb — moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti;

UMQ — uzoq muddatli qarzlar, so'mda.

Moslashuvchanlik koeffitsiyenti — bu ishchi kapitalni shaxsiy kapitalga nisbatidir:

$$Kmk = \frac{Ik}{Shk}.$$

Bu yerda:

Kmk — moslashuvchanlik (gibkost) koeffitsiyenti;

Ik — ishchi kapital, so'mda.

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti — bu amortizatsiya ajratmasi miqdorining asosiy vositalar boshlang'ich qiymatiga nisbatidir:

$$Kayua = \frac{Aa}{Avbq}.$$

Bu yerda:

Kavua — asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti;

Aa — amortizatsiya ajratmasi, so‘mda;

Avbq — asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, so‘mda.

Qo‘shma korxona ishbilarmonlik aktivligi koeffitsiyentlari — bu aktivlar aylanishi koeffitsiyenti, ya’ni bu mahsulot sotishdan tushgan sof tushumning aktivlar o‘rtacha yillik qiymatiga nisbatidir:

$$Kaa = \frac{ST}{AO'UQ}.$$

Bu yerda:

Kaa — aktivlar aylanishi koeffitsiyenti;

ST — sof tushum.

Debitorlik qarzları aylanishi koeffitsiyenti — bu mahsulot sotishdan tushgan sof tushumning o‘rtacha yillik sof debitorlik qarzlariga nisbati.

$$Kdqa = \frac{ST}{O'UDQ}.$$

Bu yerda:

Kdqa — debitorlik qarzları aylanish koeffitsiyenti;

O‘UDQ — o‘rtacha yillik debitorlik qarzları.

Kreditorlik qarzları aylanishi koeffitsiyenti — bu realizatsiya qilingan mahsulot tannarxining o‘rtacha kreditorlik qarzlariga nisbati:

$$Kkqa = \frac{Xt}{O'UKQ}.$$

Bu yerda:

Kkqa — kreditorlik qarzları aylanish koeffitsiyenti;

Xt — realizatsiya qilingan mahsulot, so‘mda;

O‘UKQ — o‘rtacha yillik kreditorlik qarzları, so‘mda.

Shaxsiy mablag‘lar aylanishi koeffitsiyenti — bu sotish evaziga olingan sof tushum qiymatining shaxsiy kapital o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati:

$$Kshka = \frac{ST}{Shko'yq}.$$

Bu yerda:

Kshka — shaxsiy kapital aylanishi koeffitsiyenti;

Shko‘yq — shaxsiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, so‘mda.

O‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyatlari — bu investitsiya summasining naqd pul tushumi oqimiga nisbati:

$$Ko‘o‘m = \frac{IS}{NPT}.$$

Bu yerda:

Ko‘o‘m — o‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyatlari;

IS — investitsiya summasi;

NPT — naqd pul tushumi, so‘mda.

Rentabellik koeffitsiyentlari, aktiv rentabelligi — sof foydaning aktivlar o‘rtacha yillik qiymatiga nisbatidir:

$$Ra = \frac{SF}{AO‘UQ}.$$

Bu yerda:

Ra — aktivlar rentabelligi, SF — sof foyda.

Sotish rentabelligi — bu yalpi (sof) foydaning mahsulot sotishdan tushgan sof tushumga nisbati:

$$Rs = \frac{UaF}{MSTT}.$$

Bu yerda:

Rs — sotish rentabelligi;

UaF — yalpi (sof) foyda;

MSTT — mahsulot sotishdan tushgan tushum.

Shaxsiy kapital rentabelligi — bu sof foydaning shaxsiy kapital o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati:

$$Rshk = \frac{SF}{Shko‘yq}.$$

Bu yerda:

Rshk — shaxsiy kapital rentabelligi.

Qarzga olingan kapitaldan foydalanish rentabelligi — shaxsiy mablag‘lar rentabelligi darajasining zayom mablag‘lar o‘rtacha foiz darajasiga nisbati.

$$Rqk = \frac{Rshk}{Zmo‘fd}.$$

Bu yerda:

Rqk — qarzga olingan kapital rentabelligi;

Zmo‘fd — zayom mablag‘larning o‘rtacha foiz darajasi.

Mahsulot rentabelligi darajasi — bu yalpi foyda miqdorining tovar mahsuloti tannarxiga nisbatli bilan aniqlanadi:

$$Rm = \frac{Uaf}{Xt}.$$

Bu yerda:

Rm — mahsulot rentabelligi;

Uaf — yalpi foyda;

Xt — mahsulot tannarxi.

Aksiya samaradorligi — bu sof foydaning muomaladagi aksiya miqdoriga nisbatidir:

$$As = \frac{SF}{Ma}.$$

Bu yerda:

As — aksiya samaradorligi;

Ma — muomaladagi aksiyalar soni.

Bundan tashqari, qo‘shma korxonalarda ayrim turdag'i manbalardan samarali foydalanishda bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, mehnat manbalaridan foydalanishda: mehnat unumdorligining o‘sishi, mehnat resurslari, tuzilishi, tarkibi, ish haqi fondi. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni baholashda: fond qaytimi, fond sig‘imi, ishlab chiqarish quvvati, quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti, amortizatsiya normasi. Material manbalaridan foydalanishni baholashda: material sig‘imi, mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, tannarx tuzilishi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

#### **6.4. Qo‘shma korxonalarning xalq xo‘jaligidagi samarasi**

Qo‘shma korxonalarning xalq xo‘jaligidagi samarasi uning daromadlari va xarajatlarini taqqoslash orqali aniqlanadi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

### **Birinchidan:**

- davlat byudjetiga ajratma miqdorida;
- respublikamiz ishtirokchisiga ajratilgan foyda ulushida;
- qo'shma korxonalar tomonidan boshqa xizmatlari uchun to'lovlar ko'rinishida;
- qo'shma korxonalar evaziga boshqa tushumlar bo'yicha.

### **Ikkinchidan:**

- qo'shma korxonaga berilgan kreditlar;
- qo'shma korxona mablag'larini davlat banklarida saqlash uchun to'lovlar.

Shuni ham unutmaslik kerakki, qo'shma korxonalar tashkil etish va faoliyat yuritishi xalq xo'jaligi samarasining aniq o'lchovini talab qiladi.

Har bir ta'sischi qo'shma korxona tashkil etganligi uchun sezilarli natijaga ega bo'lishi kerak. To'g'ridan-to'g'ri oladigan samarasini — bu ushbu korxona foydasining bir qismiga ega bo'lishdir.

Qo'shma korxona samaradorligini aniqlashning boshlang'ich prinsipi korxona kapitali va joriy sarflarini faoliyat natijasiga taqqoslashdir. Asosiysi, bu qo'shma korxonaning ichki va tashqi bozorda mahsulot realizatsiya qilishi evaziga (so'mda yoki chet el valyutasida) olgan foydasidir.

Qo'shma korxonalarda foya — mablag'larni banklarda saqlash, tovar va pul zayomlari, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish, har xil jamiyatlarda ulushchi sifatida qatnashishi evaziga ham olinishi mumkin.

Qo'shma korxonalarining xarajatlari funksional ahamiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- kapital xarajatlar;
- joriy xarajatlar.

Kapital xarajatlarga qo'shma korxonalarini tashkil etish, uni rivojlantirish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish xarajatlari kiradi. Foydaning ushbu xarajatlarga taqqoslanishi ularning rentabelligi va qoplash muddatini aniqlash imkonini beradi.

Joriy xarajatlar mahsulot tannarxini shakllantiradi (tashkil etadi). Ular tarkibiga material xarajatlar, amortizatsiya ajratmasi, manbalar uchun to'lovlar, ish haqi, yondashma xarajat va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Foydaning ushbu xarajatlarga nisbati ham samaradorlik imkonini beradi.

Samaradorlikni aniqlash uchun bir qator jadval ma'lumotlaridan foydalanishimiz mumkin.

## **6.5. Qo'shma korxonalarda kredit tizimi**

Kredit qo'shma korxonalarni moliyalashtirishning manbalari dan biridir. Kredit deganda, vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddat-larga haq to'lash sharti bilan qarzga olishi va qaytarishi yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

Qo'shma korxonada kredit quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va boshqa) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik aylanmasiga joriy etish.

2. Bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, muomaladagi kapitalga aylantirish.

3. Qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar orasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining harakatini ta'minlash.

4. Qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash.

Qo'shma korxonalarga kredit berishda umumiy qonuniyatlarga asoslaniladi: maqsadga, muddatga, qaytarib berish sharti bilan (farqi hisoblangan holda).

Qo'shma korxonalarga kredit berishda davlat qonunlari va normativ hujjatlarga asoslaniladi. Kredit mahalliy va xorijiy valyutada berilishi mumkin. Davlat va tijorat banklari tomonidan qo'shma korxona faoliyatini kreditlash yuzasidan maxsus tartib joriy etiladi.

Qo'shma korxona uchun 3 turdag'i kreditlar beriladi (8-jadvalga qarang):

- uzoq muddatli;
- o'rta muddatli;
- qisqa muddatli.

*8-jadval.*

<b>Kredit turlari</b>	<b>So'm</b>	<b>So'mga aylantirilgan</b>	<b>Valyuta</b>
Qisqa muddatli (uch yilgacha)	Markaziy bank		
O'rta muddatli (uch yildan besh yilgacha)	Tarmoq-tijorat aksiyadorlik banklari		
Uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq)	Markaziy bank, Tarmoq-tijorat aksionerlik banklari		

Moliyalashtirish va kapital mablag'lar hisobi belgilangan tartibda olib boriladi. Shu bilan bir qatorda, qo'shma korxona iltimosiga ko'ra banklarda mablag'larning jamg'arilishi va sarflanishi bo'yicha maxsus raqamlar ochilishi mumkin.

Qisqa muddatli kreditlar so'mlarda markaziy bank va tijorat banklari tomonidan beriladi. Qisqa muddatli kreditlar joriy xarajatlarni qoplash maqsadida beriladi. Ushbu kredit olish uchun qo'shma korxona kredit beruvchi banklar bilan miqdori yuzasidan kelishib oladilar.

Banklar har oyda korxona balansiga asosan, berilgan ssudaning ta'minlanganligini nazorat qilib boradi. Agar mablag'larni ta'minlashda ortiqchalik holati sezilib qolsa, bu summani muddati o'tgan qarzlarni qoplashga yo'naltiriladi. Agar kamomad bo'lsa, korxona hisob raqamidan undiriladi, agar hisob raqamida mablag' bo'limasa, uni oshirilgan foiz to'lash sharti bilan muddati o'tgan ssudalarga o'tkaziladi.

Agar 2 oydan ortiq muddati o'tgan qarz bo'ladigan bo'lsa, yangi ssuda berish to'xtatiladi, tushgan tushum savdoni orttirishga ajratiladi, qo'shimcha kredit faqat kafolat bilan berilishi mumkin.

Agar qo'shma korxona bevosita jahon bozoriga chiqayotgan bo'lsa, eksport mahsuloti uchun kredit berilishi mumkin. Mamlakat doirasida va xorij yo'llarida turgan, sotilgan yoki sotilish arafasida bo'lgan respublika hamda xorij portlari omborlarida turgan eksport tovarlarini kreditlashtirish alohida ssuda schyotlari orqali chegaralangan holda amalga oshiriladi. Kredit foizi boshqa ssudalarga nisbatan kam miqdorda belgilanadi.

Chetdan xomashyo materiallari, yarim tayyor mahsulotlar keltirish uchun qisqa muddatli kreditlar milliy bank yoki boshqa banklar tomonidan 2 yil muddatga beriladi. Bunday kreditlarni berish shartlari foiz miqdori va qaytarish tartiblari o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish yuzasidan tasdiqlangan tartibga mos keladi.

Qo'shma korxonalarga nizom fondi hisobiga sotib olinadigan asosiy vositalar uchun miqdori va garovdan qat'i nazar, o'rta va uzoq muddatli kreditlar beriladi.

Yuqoridagi ssudalarning qaytarilishi uchun belgilangan bank tartibi bo'yicha qo'shma korxona aktiv xizmat qiladi. Ammo qo'shma korxona tashkil etish jarayonida yuqoridagi aktivlar mavjud bo'lmaydi, bu holatda yagona kreditning qaytarilishi qo'shma korxona kafolati hisoblanadi.

Kredit bank tomonidan qo'shma korxonaning kredit faoliyatini chuqur tahlil etish asosida beriladi. Bu yerda qo'shma korxona texnik-iqtisodiy holatini asoslashda bank xodimining qatnashishi shart.

Qo'shma korxonalarga maqsadli kreditlar berishda milliy bank va tashqi savdo banki qo'shma korxona ta'sischilari bilan shartnoma tuzadilar. Bu yerda kreditning aniq maqsadi ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar kredit belgilangan maqsadda foydalanilmasa, kredit shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinishi va qaytarib olinishi mumkin.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligi va bank foizlari to'lmagan holatlarda bank qo'shma korxonaga nisbatan quyidagi choralarни ko'rishi mumkin:

1. Qaytarilmagan kredit miqdorini muddati o'tgan hisoblab, oshirilgan foizda undirib olish.

2. Kelgusida kreditlashtirishni to'xtatish.

3. Yangi kreditlar berishdan voz kechish.

Xorijiy valyutada kredit berilganda milliy bank kredit oluvchining yillik foydalanmagan mablag'i qismidan 6,5 foiz undirib oladi. Shu jumladan, qo'shma korxona telegraf elektron pochta va boshqa sarflarni ham qoplaydi.

Qo'shma korxona tomonidan qaytarish muddati o'tib ketsa, bank o'tish sababini ko'rib chiqadi va o'z ixtiyori bilan qaror qabul qiladi:

— qo'shma korxonaning valyuta schyotidagi mablag'i hisobiga qaytarib olish;

— korxonaning valyuta schyotida yuqoridagi mablag' bo'l-magan holda muddati o'tgan kreditlar hisobiga kiritish va chet el valyutasida qo'shimcha shartnomalarda ko'rsatilgan miqdorda foiz olish;

— barcha qarzlarni foizi bilan majburiy to'lash muddatini belgilash;

— berilgan kreditlardan kelgusida foydalanishni to'xtatib qo'yish;

— qo'shma korxonadan ilgari xorijiy valyutada olingen barcha kreditlarni qaytarishni talab qilish.

Qo'shma korxona tomonidan investitsiya xususiyatiga ega bo'lma-gan tovar va xizmat xarajatlarini qoplash uchun so'mga aylanti-rilgan muddatli kreditlarni beradi.

So‘mga aylantirilgan kreditlarning foiz darajasi banklar ittifoqi tomonidan 3,25 foizdan 5 foizgacha belgilanadi.

Qo‘shma korxonaning so‘mga aylantiriladigan mablag‘lari MBES hisoblarida saqlanilgan bo‘lsa, Banklar ittifoqi tomonidan saqlash muddatiga qarab, 2 shartnoma foizdan 4 foizgacha to‘lov belgilanadi.

Valyuta hisoblari bo‘yicha hisob-kitobning asosiy ko‘rinishlari amaliyatda xalqaro banklarda qo‘llaniladigan akkreditiv inkassa o‘tkazish cheklari va boshqalar hisoblanadi.

To‘lovlar, asosan, mijoz tomonidan tavsiya etilgan pul to‘lov hujjatlari shakllari va tavsiya etish tartiblari orqali amalga oshiriladi.

## ***6.6. Qo‘shma korxonalarda sug‘urta***

Qo‘shma korxonalar mulki va mulk manfaatlari tomonidan amalga oshiriladi. Sug‘urta to‘lovlarni qo‘shma korxonalar balans foydasidan to‘laydilar. Qo‘shma korxonalarda quyidagi mulk va mulkiy munosabatlar sug‘urta qilinadi:

- ijara olingan yoki ijara olinmagan asosiy vositalar;
- aylanma mablag‘larning bir qismi, ya’ni ombordagi ishlab chiqarish zaxiralari, o‘zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar;
- xo‘jalik faoliyati to‘xtashi evaziga zararlar;
- qo‘shma korxona fuqarolik javobgarligi.

Yuqoridagi sug‘urta turlari barcha qo‘shma korxonalar uchun zarur. Ularga qo‘srimcha tarzda xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqib, yana quyidagi sug‘urta turlari tavsiya etilishi mumkin:

- mashina va qurilmalarni sinishdan;
- yuklarni transport vositalari orqali tashishni sug‘ortalash;
- mulkni o‘g‘irlashdan.

Bu sug‘urta turlari qo‘shma korxonalar o‘z xohishiga qarab ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Qo‘shma korxonalar sug‘urta haqida shartnoma tuzishi uchun belgilangan tartibda va muddatda sug‘urta kompaniyalariga ariza beradi.

Sug‘urta organlari tomonidan ariza ko‘rib chiqilgandan so‘ng qo‘shma korxonaga sug‘urta qoidalari, shartlari, sug‘urta summasi, javobgarlik chegarasi, muddati, sug‘urta qiymati va boshqa ma’lumotlar beriladi. Loyiha ma’lumot olingan kundan boshlab 14 kun muddat ichida tuzib chiqiladi. Qo‘shma korxona loyihami

olgandan so‘ng 30 kun ichida sug‘urta organiga barcha hujjat-larning 1 tadan asl nusxalarini mas‘ul shaxslar imzosi bilan jo‘natadi.

Agar qo‘shma korxona e’tiroz bildirsa, sug‘urta kompaniyasi qaytadan tartibni ko‘rib chiqadi va qo‘shma korxonaga 30 kun muddat ichida tasdiqlashga yuboradi.

Sug‘urta polisi barcha ma’lumotlar aks ettirilgan holda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Qo‘shma korxona sug‘urta organlarini sug‘urta obyekti yuzasidan barcha mavjud o‘zgarishlar, sug‘urta summasi va tavakkalchilik darajasi haqida ogohlantirib turadi. Yuqorida o‘zgarishlar sug‘urta organlariga sug‘urta shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘srimcha haq talab qilish imkonini beradi.

### **O‘zini-o‘zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo‘shma korxonalarda soliq va soliq tizimi.
2. Qo‘shma korxonalarda bahoni shakllantirish xususiyatlari.
3. Qo‘shma korxonalarda foyda va uni aniqlash tartibi.
4. Qo‘shma korxonalarda foydaning taqsimlanishi.
5. Qo‘shma korxonalar samaradorligini aniqlash.
6. Qo‘shma korxonalarining xalq xo‘jaligidagi samarasi.
7. Qo‘shma korxonalarda kredit tizimi.
8. Qo‘shma korxonalarda sug‘urta tizimi.

## VII bob

# Qo'shma korxonalar faoliyatini rejalashtirish va biznes reja

---

---

### ***7.1. Rejalashtirishning uslubiy asoslari***

Qo'shma korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Ular jumlasiga: — talab va taklifga asoslangan holda, qachon, qaysi vaqtga, qancha va qanday sifatda mahsulot ishlab chiqarishni to'g'ri aniqlash; — ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyaning oqilona holatini tanlash; — manbalar bilan doimiy ravishda va o'z vaqtida ta'minlashiga erishish; — asosiy va aylanma kapital miqdori, mahsulotning sotish shakllari hamda usullari va hokazolar kiradi.

Bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik faoliyatini yuritishda yuqoridagi omillardan foydalanish darajasi naqadar ulkandir. Shuning uchun har bir qo'shma korxona ulardan oqilona foydalanishga harakat qiladi.

Bu esa o'z navbatida ma'lum bir iqtisodiy dastaklardan yoki xo'jalik yuritishning shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Shu jumladan, qo'shma korxonada xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatini bashoratlash va rejalashtirish. Bu esa korxonada xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyati istiqbollarini oldindan ko'ra bilish va rejalashtirishni taqozo etadi.

Bashoratlash — korxona xo'jalik faoliyatini oldindan ko'ra bilishni anglatib, rejalashtirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Bashoratlar taxminiy mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik, tashkiliy va ekologik xarakterga ega bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda iqtisodiy bashoratlashga adabiyotlarimizda yetarli darajada e'tibor berilmayotgan bo'lsa-da, korxona strategik rejalarini ishlab chiqishda uning o'rni juda beqiyosdir. Qo'shma korxonalar faoliyatini boshqarishda iqtisodiy bashorat va rejalashtirishning umumiy metodologik asoslariga tayaniladi, ya'ni:

— iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, ilmiylik, maqsadlik, amaliy kabi umumiy tamoyillar bilan bir qatorda ko'p variantlilik, qarolarning taxminiy xarkterga ega bo'lishi voqeа va hodisalarning bir-biriga bog'liqlikda o'rganish tamoyillariga ham asoslaniladi.

Taxminiy yondashuv, kompleks yondashuv, sistemali yondashuv, strukturaviy yondashuv, «Delfi», «Aql hamlasi» kabi bashoratlashning asosiy usullaridan keng foydalaniladi.

Iqtisodiy bashoratlash to'rtta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ilmiy tahlil etish.
2. Voqeа va hodisalarni bir-biriga bog'liqlikda o'rganish.
3. Hozirgi taraqqiyot darajasiga, aniq holatga va uni kelgusida rivojlantirish imkoniyatlariga baho berish.
4. Kelgusidagi taraqqiyotning alternativ imkoniyatlarini belgilash.

Tahlil etish o'z vaqtida uchta bosqichda amalga oshiriladi.

I bosqich. O'rganilayogan obyekt yuzasidan ma'lumotlar to'plash.

II bosqich. To'plangan ma'lumotlarni tahlil etish va qayta ishslash.

III bosqich. Diagnoz tahlil natijalaridan kelib chiqib aniq qarorlar qabul qilish.

Voqeа va hodisalarning ro'yobga chiqishi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Ularni bog'liqlikda o'rganish ikkinchi funksiya mohiyatini anglatadi.

Iqtisodiy bashoratlashning bazasi (asosi) «Potensial» hisoblanadi.

Potensial — lotincha so'z bo'lib, imkoniyat, kuch ma'nosini anglatadi. Qo'shma korxona iqtisodiy potensiali:

1. Sanoat ishlab chiqarish potensiali.
2. Ilmiy-texnika taraqqiyoti potensiali.
3. Ijtimoiy (sotsial) potensialni o'z ichiga oladi.

**Sanoat ishlab chiqarish potensiali** deyilganda, qo'shma korxona sex, uchastkalari, ularning moddiy-texnik bazasi, ular yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar soni tushuniladi. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishning asosiy manbai hisoblanadi.

**Ilmiy-texnik potensial** — bu mavjud ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik byurolari, laboratoriylar, ularning moddiy-texnika

bazasi, ma'lum bir davr mobaynida yaratilgan yangiliklar, yangi texnika va texnologiyalar, yangi turdag'i mahsulotlar. Ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan ilmiy xodimlar majmui tushuniladi.

**Ijtimoiy (sotsial) potensial** deyilganda, ijtimoiy sohalarning mavjud imkoniyatlari tushuniladi.

Yuqoridagilarning barchasi qo'shma korxonani iqtisodiy boshoratlashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bir qator samarali ish yurituvchi qo'shma korxonalar tajribasi keskin raqobat holatida rejalashtirish — iqtisodiy o'sish va yuksalishning bosh sharti ekanligini ko'rsatadi. Bu — o'z o'mida ishlab chiqarishni bozordagi talab va taklifga oqilona bog'lash hamda rejalashtirishning mohiyatini anglatadi.

**Birinchidan**, imkoniyatlarni tanlab olish, mavjudligi bilan aloqadorligini taqqoslaydi.

**Ikkinchidan**, tanlab olingan variant qaror qabul qilishda asos bo'ladi.

**Uchinchidan**, rejalashtirish qarorlar qabul qilishning uzlksiz jarayoni bo'ladi, bu davrda doimiy ravishda vaqt, maqsad va vazifa oydinlashtirib boriladi. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarishdan tortib to sotishga qadar bo'lgan jarayonlar uchun maqsadga erishish strategiyasi aniqlanadi. Aniq reja qismlari ishlab chiqiladi va barcha ko'rsatkichlar koordinatsiya qilinadi.

**To'rtinchidan**, rejalashtirishning asosiy qonuniyatlari — foydali ishslash va korxona egalari, ta'sischilar, aksiyadorlar jamoasi va davlat manfaatdorligini ta'minlaydi.

**Beshinchidan**, rejalashtirish ishlab chiqarish omillari, mazmuni va xarakteridan kelib chiqib, uzoq muddatli va o'rta muddatliga bo'linadi. Masalan, mashina va qurilmalar sotib olish hamda ulardan foydalanish, kadrlar siyosati, mahsulot turlarini aniqlash va sotish, bozorlarni tanlash uzoq muddatli rejalarda hisobga olinadi. O'z vaqtida ishlab chiqarishni xomashyo va materiallar bilan ta'minlash joriy rejalarda o'z aksini topadi.

Amaliyotda qo'shma korxonalarning strategik uzoq muddatli, qisqa muddatli, shu jumladan, joriy rejalar keng qo'llaniladi.

Rejalashtirishning yuqoridagi barcha turlari o'zining uslubi, shakli, usullari va ko'rsatkichlari bilan hisoblash tartibiga ega.

Qo'shma korxonalarda rejalashtirish jarayoni tovar va xizmatlarga ehtiyojni aniqlash, ishlab chiqaruvchilarga topshiriqlarni o'z

vaqtida yetkazib berish, bajarilishini ta'minlashga qulay imkoniyatlar yaratish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Topshiriqlar bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish rejalashirishning asosiy va hal qiluvchi bosqichidir.

Strategik rejalashtirish — qo'shma korxonaning kelgusida mammalakat iqtisodiy-ijtimoiy qurilishida va iqtisodiyotida qanday o'mni va roli borligini aniqlab beradi. U atroflicha yoritilgan ko'rsatkichlarda va har xil istiqbolni belgilovchi bashorat (prognoz)larda ifodalanadi.

Bu yerda strategik reja ko'rsatkichlari sharoitni hisobga olgan holda aniqlashtirilib ko'rsatiladi. Uzoq muddatli rejalashtirish natijasi barcha faoliyat turlari — sotish, ishlab chiqarish, xarajatmoliya va hokazolar bo'yicha 3—5 yillik reja asosida hisoblanadi.

Uzoq muddatli rejalashtirish asosida qisqa muddatli rejalar ishlab chiqiladi. Ular muddatiga ko'ra 1—3 yilga mo'ljallangan bo'ladi. Ularning alohidalik tomonlari shundaki, topshiriqlar yaqin yillar, oylar va kvartallarga bo'lingan holda aks ettiriladi, ikkinchi va uchinchi yillarda esa 6 oylik va to'la bir yilga mo'ljallanadi.

Bundan tashqari, joriy rejalar ham ishlab chiqiladi, odatda, ular 1 yilga tuziladi. Uning asosi bo'lib talab va taklif xizmat qiladi. Bu rejalar ko'rsatkichlar kvartallarga taqsimlangan holda ko'rsatiladi. Ushbu rejalarning birinchi uch oylik ko'rsatkichlari o'zgarmas va qat'iy hisoblanadi, qolgan 9 oylik rejalar o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

Qo'shma korxonaning boshqa bo'limlari faoliyatini bir-biriga uzviy ravishda bog'lashda tezkor yoki kalendor rejalar roli beqiyosdir. Ushbu rejalar qisqa vaqtga tuziladi. Eng keng tarqalgani 10 kunlik rejalar hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan har qanday tadbirkorlik faoliyati o'z rejalariga ega bo'lib ularning keng tarqalgan shakli biznes reja hisoblanadi. Bu keyingi (7.2) mavzuda kengroq yoritilgan.

Reja korxona faoliyatini boshqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Rejalashtirish deyilganda, tadbirkorlik faoliyati maqsadini aniqlash, mahsulotlarga bo'lgan bozor talabini o'rganish asosida ishlab chiqarish topshiriqlarini belgilash, topshiriqlar bajarilishini ta'minlash va nazorat qilib borish jarayoni tushuniladi.

Boshqaruvning barcha usullarida rejalaridan keng foydalaniladi. Shuning uchun bugungi kunda mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlikning barcha subyektlarida biznes rejalar tuzish shartdir.

Rejalarni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslashda ko'rsatkich tizimidan foydalaniladi.

Ko'rsatkich — bu topshiriqning ifodalanish formasi. Ko'rsatkichlar tizimi esa ko'rsatkichlarning mazmun-mohiyati va ifodalanishi majmuidir.

Ko'rsatkichlar tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

*Birinchidan*: ma'lum bir maqsad va manzilga (adres)ga qaratilganlik.

*Ikkinchidan*: barcha subyektlar uchun umumiylilik.

Ko'rsatkichlar sistemasiga quyidagilar kiradi:

1. Natura va qiymat.
2. Absolut va nisbiy.
3. Miqdor va sifat.
4. Tasdiqlangan ko'rsatkich va hisob-kitob.

Natura ko'rsatkichlar topshiriqlarning natura o'lchov birliklarida ifodalanadi: tonna, metr, kilogramm va hokazo.

Qiymat ko'rsatkichlarga pul shaklda ifodalanadigan topshiriqlar kiradi. Ularga misol qilib tovar mahsuloti hajmi, realizatsiya qilingan mahsulot, sof normativ mahsulotlarni olishimiz mumkin.

Absolut ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning tashqi tomonini ifodalaydi.

Nisbiy ko'rsatkichlar absolut ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Ularga ulush foizlarini misol qilib olamiz.

Miqdor ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning ekstensiv tomonini ifodalaydi. Bunga ishchilar soni, asosiy fondlar qiymati misol bo'la oladi.

Sifat ko'rsatkichlar ishlab chiqarishning intensiv tomonini ifodalaydi. Ularga mehnat unumдорligi ortishi, fond qaytimi kabi ko'rsatkichlarni misol qilib olishimiz mumkin. Tasdiqlangan ko'rsatkichlar yuqori davlat organlari tomonidan beriladi, bajarilishi majbur hisoblanadi.

Masalan, O'zDEUavto qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni.

Hisob-kitob ko'rsatkichlaridan tasdiqlangan ko'rsatkichlarni asoslashda foydalaniladi. Ularga qo'shma korxonaning ishlab chiqarish quvvati, quvvatdan foydalanish koeffitsiyentini misol qilib olishimiz mumkin.

## **7.2. Korxona biznes rejasi, uning mazmuni va tuzish tartibi**

Biznes reja — istiqbolni belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Biznes reja 3—5 yilga tuziladi. Birinchi va ikkinchi yillar uchun topshiriqlar kvartallarga bo'lingan holda, uchinchi yildan boshlab esa har yillik ko'rsatkichlar belgilanishi mumkin.

Jahon amaliyotida biznes rejalarining 5 bo'limdan to 18 bo'lim-gacha shakllari mavjud.

Biznes reja tuzilishini har bir tadbirdor tadbirdorlik doirasi, faoliyati, turi va imkoniyatlardan kelib chiqib o'zi mustaqil ravishda belgilaydi. (Bizning respublikamizda qishloq xo'jaligidagi shirkat va fermer xo'jaliklari uchun tasdiqlangan namunaviy shakli mavjud).

Bu faoliyat davomida oldindan tanlab olingen loyihaning bosh strategiyasidan kelib chiqib, o'z biznes rejasi tarkibi belgilanadi.

Biznes reja quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. Firmaning imkoniyatlari (kirish).
2. Tovar (xizmat)lar turlari.
3. Tovarlar sotish bozorlari.
4. Tovarlarni sotish bozorlarida raqobat.
5. Marketing rejasi.
6. Ishlab chiqarish rejasi.
7. Tashkiliy reja.
8. Firmaning huquqiy ta'minoti.
9. Tavakkalchilikni baholash va sug'urta.
10. Moliya rejasi.
11. Moliyalashtirish strategiyasi.

Qo'shma korxonalarda biznes rejalar tuzishga maxsus ishchi guruhlari tashkil etiladi. Ishchi guruhlari tarkibiga korxonaning yetakchi mutaxassislari va malakali xodimlari kiritiladi. Ishchi guruhlariga korxona rahbari rahbarlik qiladi. Har bir ishchi guru-higa aniq vazifalar beriladi va bajarish muddati belgilanadi.

Ish hajmi yuqori bo'lgan guruhlar tarkibida ham alohida guruhchalar tashkil etilishi mumkin.

Guruhlar umumiy yig'ilishida tuzilgan loyihalar muhokama qilinadi va ular asosida biznes reja tuziladi.

Qo'shma korxona biznes rejalariga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. Biznes reja tushunarli, sodda bo‘lishi.
2. Biznes rejalarда faqat birinchi darajali asosiy ma’lumotlar aks ettirilishi lozim, ya’ni texnologik jarayonlarni to‘la yoritish shart emasligi.
3. Biznes reja tuzishda umumfoydalanilayotgan terminlarga asoslanish lozimligi.

Biznes rejalar ikki xil maqsadda tuzilishi mumkin.

*Birinchidan* — investorlar uchun, ya’ni loyihani amalgalashish jarayonida tadbirkorning shaxsiy mablag‘lari yetarli bo‘lmassisligi mumkin. Bu holatda ular mulkdorlarning bo‘sish mablag‘lari dan foydalanishga majbur bo‘ladi. Loyihaning samarasi biznes rejalarда asoslangan bo‘ladi. Bunday biznes rejalar nisbatan qisqa bo‘lib, korxonaning nozik tomonlarini o‘zida to‘la aks ettirmaydi.

*Ikkinchidan* — korxona rahbarlari uchun tuziladi. Bu biznes rejalar oldingiga nisbatan kengroq ma’nioni anglatadi. Ishlab chiqarishdagi muhim masalalarga ham e’tibor beriladi.

Biznes rejalar doimiy ravishda qayta ko‘rilib boriladi.

Bozordagi holatdan kelib chiqib ularga tuzatmalar kiritiladi.

O‘zDEUavto qo’shma korxonasi biznes rejasi (1997-yil) asosan quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

**I. Asosiy holat:**

1. Strategiya.
2. Boshqarishning maqsadi.
3. 1997-yilga ishbilarmonlik holati.
4. Asosiy holat.
5. Ishlab chiqarish rejasi.
6. Korxona ish rejasi.

**II. Realizatsiya rejasi:**

1. Mahsulotlarga tavsifnoma.
2. Sotish hajmi.
3. Ulgurji baho.
4. Realizatsiya summasi.

**III. Materiallar bilan ta’minalash rejasi:**

1. Manbalar rejasi:
  - a) mahalliy ta’minot;
  - b) korxona ishlab chiqarishi;
  - d) butlovchi materiallarni chetdan keltirish.

**IV. Ishchi kuchi rejasi:**

1. Tashkiliy tuzilishi.

2. Xodimlarning rejadagi soni.
3. Malaka oshirish rejası.
4. Shkala.
5. Mehnat bo'yicha umumiylar.

#### **V. Ishlab chiqarish xarajatlari.**

1. Ishlab chiqarish xarajatlarining xarakteri.
2. Xarajatlarning turlanishi.
3. Kommunal xarajatlar.
4. Litsenziya to'lovlari.

#### **VI. Sotish va sotishdan keyingi xizmatlar:**

1. Sotish tizimi va servis xizmati.
2. Sotish bilan bog'liq sarflar.

#### **VII. Ishlab chiqarishga bog'liq bo'limgan xarajatlar:**

1. Bank kredit foizlari.
2. Foydalanshidan oldingi sarflardan kechib yuborish.

#### **VIII. Investitsiya rejası:**

1. Umumiy investitsiya.
2. Sotish va sotishdan keyingi xizmatlar tarmog'i.
3. Toshkent ofisi binosi.
4. Boshqalar.

#### **IX. Moliya rejası:**

1. Daromadlar va xarajatlar balansi.
2. Aktiv va passivlar balansi.
3. Pul oqimlari grafigi.
4. Avtomobil modellari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi.

O'zDEUavto qo'shma korxonasining strategiyasi xalqaro klass-dagi raqobatbardosh avtomobillar ishlab chiqarish hisoblanadi. Qo'shma korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 200 ming dona avtomobilga teng.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Reja va rejallashtirishning mazmuni va mohiyati.
2. Ko'rsatkich va ko'rsatkichlar rejası bo'limlari.
3. Korxona ishlab chiqarish rejası bo'limlari.
4. Korxona ishlab chiqarish rejası ko'rsatkichlari.
5. Biznes reja mazmuni.
6. Biznes reja tuzish tartibi.

## VIII bob

# Qo'shma korxonalarda kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lash

---

### *8.1. Qo'shma korxonalarda kadrlar siyosati*

Tadbirkorlikning barcha tashkiliy-huquqiy shakllari singari qo'shma korxonalar faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishda kadrlar siyosati asosiy rol o'ynaydi.

Xodimlarni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ish haqi shakllari va ish haqi hajmi, shu jumladan, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalalari qo'shma korxona boshqaruvi tomonidan hal etiladi.

Qo'shma korxona ma'muriyati korxonada tashkil etilgan kasaba uyushmasi bilan jamoa shartnomasini tuzadilar. Jamoa shartnomasi o'z ichiga respublika qonunlari va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan barcha talablarni, jamoaning ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'z ichiga oladi.

Qo'shma korxonalarda xodimlarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash manbai — bu ish haqi va moddiy rag'batlantirish fondlariga ajratmalar hisoblanadi. Bu fondlar korxona ixтиyoriga qoldirilgan foyda hisobidan tashkil etiladi. Qo'shma korxonalarda xodimlarga haq to'lash respublika qonunlari asosida amalga oshiriladi.

Boshqa masalalar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar mehnat shartnomasida ko'rsatiladi.

Mehnat shartnomasida xodimlarga mehnat ta'tillari berish, pensiya ta'minotiga ajratmalar va tibbiy yordam ko'rsatish masalalari sarflari qayd etiladi.

Bizning respublikamizda faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalardagi ish sharoitlari va xodimlarga to'lanayotgan haqlar mahalliy korxonalarning ish sharoitlari va ish haqlariidan kam bo'lmasligi lozim. Aks holda chet el investitsiyasining mamlakat hududiga kirib kelishi zarur bo'lsa-da, unga yo'il qo'yilmaydi.

## **8.2. Qo'shma korxonalarda mehnatga haq to'lash**

Qo'shma korxonalarda mehnatga haq to'lash tartibi amaldagi qonunlar asosida yuritiladi. Bu yerda xodimlar ikki guruhga ajratib olinadi:

Birinchisi, chet ellik mutaxassislar.

Ikkinchisi, mahalliy xodimlar.

Qo'shma korxonalardagi chet ellik mutaxassislarning oylik ish haqlari (maoshlari) ham daromad solig'iga tortiladi va bu O'zbekiston Respublikasining chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortish va daromad soliqlariga oid qonun-hujjaliga ko'ra quyidagicha hal etiladi:

Yuridik shaxslar uchun 40 foiz hisoblansa, jismoniy shaxslarga mahalliy ishchilar kabi hisoblanadi.

Qo'shma korxonalarda davlatlararo kelishuvlar bo'yicha soliq va yig'imlardan ozod qilish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ulardan foydalanish mumkin.

Agar qo'shma korxona chet ellik mutaxassisiga haq to'lashini yakka tartibdagi shartnoma asosida olib borsa, u normativ hujjatlarda qayd etilmaydi va ishlab chiqarish zaruratidan kelib chiqib, tomonlar orasida kelishib olinadi.

Shuning uchun qo'shma korxonaning ta'sischilariga ishlab chiqarish variantlarini belgilashda, shu jumladan, ishchilar sonini qisqartirishda ham to'la erkinlik beriladi.

Qo'shma korxona xodimlari uchun eng zaruri mehnatga haq to'lash masalasi hisoblanadi. Mahalliy xodimlarga haq to'lash respublika qonunlari doirasida amalga oshiriladi. Xodimlarga ish haqi to'lashning manbai qo'shma korxonalarda ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish hisoblanadi.

Qo'shma korxonalarda xodimlarga mehnat haqi (maosh) qat'iy tartibda ish haqi fondidan to'lansa, mukofotlash va taqdirlash esa faqat moddiy rag'batlantirish fondidan beriladi. Ish haqi fondi harakatdagi respublika qonunlari normasi asosida aniqlanadi.

Ish haqi fondini belgilashda ikkita asosiy prinsipdan foydalilanildi.

Birinchi prinsip mohiyati shundan iboratki, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozori baholariga asoslangan holda kelishilgan narxlarda sotiladi. Bu esa mahalliy

ishlab chiqaruvchilarga nisbatan mahsulot qiymati ortishini ta'minlaydi. Shu sababli mahalliy davlat korxonalaridagi foydalanayotgan normativlardan farq qilib, ish haqi darajasi yuqori bo'lishiga olib keladi.

Ikkinci prinsipda qo'shma korxonalarning ish haqi fondlari daromadiga nisbatan normativ asosda shakllanadi. Qo'shma korxonalarda ham daromadlar mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumdan ishlab chiqarilgan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Ish haqi fondini belgilovchi normativlar har bir tarmoq uchun tabaqalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha qo'shma korxonalarda ish haqi fondi ikkinchi prinsip asosida shakllantiriladi.

Rejadagi ish haqi fondi rejadagi daromadga nisbatan hisoblanadi. Rejadagi daromad reja davrida mahsulot sotishdan olinadigan tushumdan korxona xarajatlarini chiqarib tashlash orqali aniqlanadi.

Rejadagi daromad ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini mahsulotni sotishda ko'zda tutilgan bahoga ko'paytirish orqali topiladi.

Qo'shma korxonalarda ish haqi mahsulot tannarxi hisobiga qoplansa, moddiy rag'batlantirish uchun ajratilgan mablag'lar qo'shma korxonalar foydasi evaziga amalga oshiriladi. Shuning uchun yuqoridaq prinsipdan foydalanish qo'shma korxonani to'la quvvatda ishlashini talab etadi.

Qo'shma korxonalarda yagona ish haqi fondini ishlab chiqarish xarajatlariga bog'lanishi ko'zlangan samarani bermaydi. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshliligi-si susaytiradi, yuqori mehnat unumдорligi ortishiga to'sqinlik qiladi.

Amaliyotda qo'shma korxonalarda moddiy rag'batlantirish fondi hajmini aniqlashda korxona foydasidan qat'iy miqdorda ajratilishi tartibi belgilangani yo'q. Uning miqdori ta'sis hujjatlarida aks ettiriladi, xolos.

Masalan, ta'sischilar orasidagi kelishuvga asosan qo'shma korxonalarda moddiy rag'batlantirish fondiga ajratma olingan foydaning 2 foizidan 9 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etishi mumkin.

Qo'shma korxonada foyda normasi 7—10 foizni tashkil etsa,

moddiy rag‘batlantirish fondiga ajratma uning 4—5 foizi miqdorida, foyda normasi 10—15 foizni tashkil etsa, moddiy rag‘batlantirish fondiga ajratma 5—7 foizni, fond normasi 15 va undan ortiq foizni tashkil etsa, fondga ajratma 8—9 foizni tashkil qilishi mumkin.

Bunday yondashuv moliyaviy mablag‘lardan oqilona foydalanimish imkonini beradi, xodimlar manfaatdorligini orttiradi va jamoa mehnati natijalarini yaxshilaydi.

Mehnat qonunlariga asosan barcha qo‘shma korxona xodimlari, shu jumladan, chet ellik mutaxassislar ham majburiy ijtimoiy sug‘urtaga tortiladilar.

Ularga salomatligi va uzrli sabablar tufayli o‘z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ijtimoiy sug‘urta evaziga qonunda ko‘rsatilgan tartibda nafaqa to‘lanadi. Ularning eng ko‘p tarqalgan shakllari vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish, homiladorlik, farzand ko‘rish, farzandni tarbiyalash va hokazo to‘lovlar.

Bizning respublikamiz qonunchiligidagi oilaviy sharoitni hisobga olish evaziga bir qator ish haqiga nisbatan ustamalar berilsa-da, ushbu holat qo‘shma korxonalarda qo‘llanilmaydi. Masalan, voyaga yetmagan bolalar uchun haq to‘lanmaydi.

Qo‘shma korxonalardagi chet ellik mutaxassislar pensiya ta’-minoti ajratmasi o‘sha mamlakat valyutasida mutaxassis yashash joyiga o‘tkazib beriladi.

### **O‘zini-o‘zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo‘shma korxonalarda kadrlar siyosati.
2. Qo‘shma korxonalarda mehnatga haq to‘lashning alohidaligi.
3. Qo‘shma korxonalarda mehnatga haq to‘lash qonuniyat (principiplari).
4. Qo‘shma korxonalarda moddiy rag‘batlantirish.

**Qo'shma korxonalar tashkil etishning texnik jihatdan asoslash  
bo'yicha jadvallar ko'rinishi**

*9-jadval.*

**Binoning ijara qiymati hisobi.**

<b>№</b>	<b>Xonalar soni</b>	<b>Ofis</b>	<b>Maydoni, (metr kv-t)</b>	<b>Yillik ijara qiymati, (1 metr kv-t)</b>	<b>Ijara yillik qiymati, (1 metr kv-t)</b>	<b>Jami yillik ijara qiymati, (so'm)</b>
	<b>Jami:</b>					

*10-jadval.*

**Qurilish-montaj, loyiha-qidiruv va texnologik qurilmalarga  
ehtiyoj hisobi.**

<b>№</b>	<b>Nomlari</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Birlik qiymati</b>		<b>Umumiy qiymat</b>	
				<b>So'mda</b>	<b>Chet el valyu- tasida</b>	<b>Jami so'mda</b>	<b>Chet el valyu- tasida</b>
	<b>Jami:</b>						

**Ofis uchun jihozlar hisobi.**

№	Nomlari	O'l-chov birligi	Soni	Birlik qiymati		Umumiy qiymat		Izoh
				So'm-da	Chet el valyutasida	Jami so'm-da	Chet el valyutasida	
1.	Mebel jami							
2.	Idora anjomlari jami							
3.	Kompyuterlar va hisob mashinalari jami							
4.	Boshqalar							
5.	Ulgurji qiymati							

**Pul mablag'lariga minimal ehtiyoj hisobi.**

№	I kvartal yoki yarim yillik xarajatlar moddalarini	So'mda	Chet el valyutasida	Jami	Izoh
1.	Xodimlar uchun sarflar				
2.	Elektr energiya sarflari				
3.	Umumxo'jalik xarajatlari				
4.	Sug'urta				
5.	Reklama				
6.	Boshqa sarflar				
	Jami				

## Qo'shma korxona tashkil etish uchun boshlang'ich sarmoya.

№	Nomlari	Jami sarmoya		Jami so'm- da	Ta'sischilar ulushi				Jami		
		So'm	Chet el valyu- tasi ko'ri- nishida		O'zbekiston- liklar		Xorijliklar				
					So'm	Chet el valyu- tasida so'm ko'ri- nishi	So'm	Chet el valyu- tasida so'm ko'ri- nishi			
1.	Imorat va inshootlar										
2.	Transport vositalari va qurilmalar										
3.	Boshqa material boyliklar										
4.	Foydala- nish huquqi: yerdan, suvdan va boshqa tabiiy man- balardan, imorat va inshootlar- dan, mashina va qurilma- lardan, pul mablag'- lardan										
	JAMI										
	Ulush nisbati										
	Foizi										

## Qo'shma korxona mahsulotlari tannarxi.

№	Xarajat turlari	Yillar			
		1	2	3	va boshqa
1.	Xomashyo va materiallar, shu jumladan, chet el valyutasida				
2.	Butlovchi buyumlar, shu jumladan, valyutada				
3.	Yoqilg'i				
4.	Elektr energiyasi				
5.	Ish haqi, shu jumladan, valyutada				
6.	Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtaga ajratma, shu jumladan, valyutada				
7.	Transport xarajatlari, shu jumladan, valyutada				
8.	Ummumkorxona xarajatlari, shu jumladan, amortizatsiya ajratmasi				
9.	Sug'urta, shu jumladan, valyutada				
10.	Yordamchi pudratchilarga to'lovlari, shu jumladan, valyutada				
11.	Reklama xarajatlari, shu jumladan, valyutada				
	JAMI xarajatlar, shu jumladan, valyutada				

## Qo'shma korxonalarda ma'muriy xarajatlar hisobi.

№	Mansablar	Jami oylik maoshi		Yillik	
		So'm	Chet el valyu-tasida so'm ko'rinishi	So'm	Chet el valyu-tasida so'm ko'rinishi
1.	Dircktor				
2.	Direktor o'tinbosarlari				
3.	Bosh (buxgalter) hisobchi				
4.	Huquqshunos va boshqa xodimlar				
5.	JAMI:				
Xodimlarning xizmat safarlari, qo'shimcha xarajatlari					
Jami umumiy xarajatlar					

## Faoliyat turlari bo'yicha qo'shma korxonalarining yillik daromadlari.

№	Faoliyat turi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	Mahsulot birligi- ning o'rtacha qiymati	Yillik umumiy qiymat	Shu jumladan	
					So'm	Chet el valyutasi ko'rinishida
1.	Qo'shma korxonalarda mahsulot sotishdan olgan daromadlar					
2.	Boshqa faoliyat turi evaziga oltingan daromadlar					
	JAMI:					

**Qo'shma korxona faoliyati yuzasidan olingan daromadlar.**

№	Faoliyat turi	Yillar			
		1	2	3	4

**Qo'shma korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari.**

№	Nomlari	Yillar			
		1	2	3	4
1.	Mahsulot sotishdan tushgan tushumlar				
2.	Xarajatlar				
3.	Balans foyda (1-q 2-q)				
4.	Zaxira fondi				
5.	Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi				
6.	Soliqqa tortiluvchi foyda (3q-4q-5q)				
7.	Soliq summasi				
8.	Moddiy rag'batlantirish fondiga ajratma				
9.	Ijtimoiy taraqqiyot fondiga ajratma				
10.	Taqsimlanuvchi foyda (6q-7q-8q-9q), shu jumladan, o'zbekistonlik ishtirokchilar ulushi, chet ellik ishtirokchilar ulushi				
11.	Ustav fondi, shu jumladan, o'zbekistonlik ishtirokchi ulushi, chet ellik ishtirokchi ulushi				

12.	Sarmoyani qolgan darajasi, foiz				
13.	Yillik samaradorlik ( $3q:2q \cdot 100$ )				
14.	Jamg'arilgan zaxira fondi				

*19-jadval.*

**Valyuta balansi.**

№	Nomlari	Yillar			
		1	2	3	4
1.	Tushumlar: — yil boshiga qoldiq; — sotishdan olingan tushum; — olingan kredit, boshqa tushumlar.				
	Jami:				
2.	To'lovlar: — joriy xarajat to'lovlari; — yordamchi pudratchilarga to'lov; — modernizatsiya va rivojlantirish xarajati — valyuta kredit, bo'yicha; — chet elliq ishtirokchi foydasi; — chet elliq xodimlar uchun sarf; — boshqa xarajatlar.				
	Jami:				
3.	O'sib boruvchi qoldiq				
4.	Yil boshiga qoldiqni hisobga olmagan holdagi qoldiq.				

## IX bob

### Qo'shma tadbirkorlik

---

#### **9.1. Qo'shma tadbirkorlik zonası**

Qo'shma tadbirkorlik zonası — bu maxsus iqtisodiy-hududiy tizimning asosi hisoblanib, bu yerda alohida valyuta, moliya, huquqiy, bojxona, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy tartib o'matiladi. U chet el kapitali manfaatlarini himoya qilgan holda, xalqaro mehnat taqsimotining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlaydi va boshqa turdag'i tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Bunday yondashuv mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el sarmoysi, ilmiy-texnik izlanishlar, yangi texnologiyalar va tovarlarning kirib kelishini ta'minlaydi hamda yangi texnika va texnologiya yutuqlari bazasida mamlakat ishlab chiqarishining yuksalishiga olib keladi.

Birgalikda (hamkorlikda) tadbirkorlik zonası tashkil etishning maqsadi, rejali va ma'muriy boshqaruv shartlari, moliyaviy-moddiy ta'minoti bo'yicha uchta asosiy guruhga bo'linadi:

- erkin iqtisodiy zona;
- bojxona zonası;
- ilmiy-texnik zona.

**Erkin iqtisodiy zona** — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiyalarni va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida hududiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslarga va fuqarolarga xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishiga ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasnodir.

Uning mohiyati erkin raqobat, to'la xo'jalik hisobi, ma'muriy iqtisodiy mustaqillik va butun zona hududidagi subyektlarning o'zini-o'zi moliyalashtirilishni ta'minlashdan iborat.

Bunda kooperativ, ijara, qo'shma va chet el korxonalari tashkil etish hisobiga erishiladi. Ishlab chiqaruvchilarga baho belgilash, hamkorlarni tanlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va nomenklaturasini aniqlash, ishchilarni yollash va ishdan bo'shatish, mehnatga mahalliy va chet el valyutasida haq to'lash, ish haqi miqdorini belgilashda mustaqillik beriladi. Erkin iqtisodiy zonada ishlab chiqarish munosabatlariiga asoslangan moliya hisob institutlari shoxobchalari joriy etilishi mumkin. Barcha mamlakatlar tadbirkorlari bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladi. Mahalliy hokimiyat ruxsati bilan barcha rasmiyatshiliklar chetdan kapital keltirish va chetga kapital chiqarish huquqi, valyuta operatsiyasi huquqi, tovonsiz savdo-sotiq huquqi, ko'chmas mulk va yerni uzoq muddatga ijaraga olish huquqi, korxonani to'la boshqarish huquqi, imtiyozli soliq tizimi va boshqa masalar hal etiladi. Ushbu hududda joylashgan davlat korxonalari bu sharoitda asosiy fondlarini ijaraga beradilar. Kelgusida ularni davlatdan sotib olish sharti ham ijara shartnomasiga kiritilishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zona tashkil etish masalasi «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi qonuni hamda mahalliy hokimiyat va davlat qarorlari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etiladi.

### **Bojxona zonası**

Bojxona zonası hududida boj to'lovlarisiz (yoki imtiyozli to'lovlar asosida) mamlakat hududiga olib kirilgan tovarlar saqlanadi, saralanadi, qayta ishlanadi hamda chet el yuklari realizatsiya qilinadi.

Bu zonalar odatda dengiz portlari, yirik chegara temir yo'l uzellari va aeroportlarda valyuta ko'rinishida foyda olish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy-teknik zona qo'shma tadbirkorlikning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanib, jahoning yirik ilmiy markazlarida tashkil etiladi.

Ushbu ilmiy texnik zonani tashkil etishda bir qator imkoniyatlar hisobga olinadi.

Ularga:

- yuqori ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma mavjudligi;
- hamkorlikda ilmiy tekshirish ishlari olib borish uchun moliyaviy imkoniyatlar mavjud bo'lishi kiradi.

Ilmiy-texnik zonani tashkil etishdan asosiy maqsad, ushbu sohada yuqori taraqqiyotga erishishdir.

Ilmiy-texnik zonalar Vazirlar Mahkamasi, Respublika Fanlar akademiyasi, Fan va texnologiyalar markazi va boshqa manfaatdor vazirliklar tashabbusi bilan tashkil etiladi.

## ***9.2. Erkin tadbirkorlik zonaci maqomi va uning huquqiy asoslari***

Erkin tadbirkorlik Respublika hududida amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun uning asosiy faoliyati harakatdagi davlat normativ qonun-hujjatlari (aktlari) asosida tartibga solib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi 1991-yil 14-iyun, qonuni.

— O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'-risida»gi 1995-yil 25-dekabr qonuni.

— O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi 1996-yil 25-aprel qonuni.

— O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi 2000-yil 26-may qonuni.

Erkin iqtisodiy zona jahonda eng keng tarqalgan erkin qo'shma tadbirkorlikning bir ko'rinishi hisoblanadi. Hozirgi kunda jahonda mavjud erkin iqtisodiy zonalarning miqdori jihatidan gap yuri-tilganda, ilmiy manbalarning ayrimlarida 400 ta, ayrimlarida 700 ta va boshqalarida 2000 ta deb aytilgan. Erkin iqtisodiy zona haqida fikr berganda, uning tarafdarlarining barchasi o'zlarining holatlaridan kelib chiqib baholashga harakat qilishgan. Ko'pchilik erkin iqtisodiy zonani Buyuk Britaniya, Misir (Yegipet), Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi iqtisodiyotiga taqqoslaydilar. Shu bilan bir qatorda, erkin iqtisodiy zonaning 30 dan ortiq shakllari mavjud bo'lib, har xil mamlakatlarda, har xil sharoitlarga asoslanib zonaga tavsifnomalar beradilar.

Tavsifnomada birinchi navbatda erkin iqtisodiy zona deb nimaga aytildi, erkin iqtisodiy zona asosi, variantlari nimadan tashkil topadi, har xil iqtisodiy rivojlanish darajasida xarakterli tomonlari nimalardan iborat kabi savollarga javob berildi.

**O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi qonuni o‘z mazmuniga ko‘ra uch bo‘limdan iborat**

**Erkin iqtisodiy zona shakli va turlari**

88

<b>Bo‘limlar</b>	<b>Mazmuni</b>
1.Umumiy qoidalar.	1-modda. Erkin iqtisodiy zona tushunchasi. 2-modda. Erkin iqtisodiy zona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari. 3-modda. Erkin iqtisodiy zona tuzish. 4-modda. Erkin iqtisodiy zona maqomini tugatish. 5-modda. Erkin iqtisodiy zonalar turlari. 6-modda. Erkin savdo zonalari. 7-modda. Erkin ishlab chiqarish zonalari. 8-modda. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalari. 9-modda. Fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlari hamda manfaatlarining kafolatlari. 10-modda. Erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish dasturi.
2. Erkin iqtisodiy zonaning huquqiy targ‘ibotlari.	11-modda. Huquqiy targ‘ibotning o‘ziga xos jihatlari. 12-modda. Alohidha bojxona targ‘iboti. 13-modda. Alohidha valyuta targ‘iboti. 14-modda. Soliq imtiyozlari. 15-modda. Mehnat resurslari. 16-modda. Erkin iqtisodiy zonada mehnat munosabatlarini tartibga solish. 17-modda. Erkin iqtisodiy zona byudjeti. 18-modda. Erkin iqtisodiy zonaga kirish, iqtisodiy zonadan chiqish va uning hududida bo‘lish tartibi. 19-modda. Sug‘urta.

3. Erkin iqtisodiy zonani boshqarish.

- 20-modda. Erkin iqtisodiy zonani boshqaruv organlari.
- 21-modda. Erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashi.
- 22-modda. Erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashining vakolatlari.
- 23-modda. Erkin iqtisodiy zonada davlat mulkining o'ziga xos jihatlari.
- 24-modda. Erkin iqtisodiy zona bosh dircksiyasi.
- 25-modda. Erkin iqtisodiy zonalarda korxonalarni ro'yxatga olish.
- 26-modda. Dempingga qarshi choralar.\*
- 27-modda. Olib kirilayotgan tovarlarga qo'yiladigan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari hamda talablari.
- 28-modda. Erkin iqtisodiy zonalar.
- 29-modda. Erkin savdo.
- 30-modda. Nizolarni hal etish.
- 31-modda. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik.

\**Demping* — xorijiy mamlakatlarda chet el bozorlarini egallash va undan raqiblarni siqib chiqarish uchun chet elda molni o'z mamlakatidagidan ko'ra arzon sotish.

Tarixan erkin iqtisodiy zonaning boshlang'ich belgisi boj tovonidagi asosiy tartib hisoblangan. Yangi eramizga qadar 166 yil avval Gretsianing Delos oroli erkin iqtisodiy zona deb e'lon qilingan. Bu orolga keluvchi savdogarlar barcha ma'muriyatchilikni bajarish, soliq va boshqa to'lovlardan ozod qilingan. Delos Janub bilan G'arb orasidagi savdo-sotiqni bog'lashda sezilarli rol o'ynadi. Ushbu tartib qariyb 80 yillar davom etdi.

Asr orasiga kelib xalqaro tovar almashuvi ko'pchilik Yevropa davlatlari tomonidan o'matilgan qattiq boj tartibidan qiyaldidi. Boj tartibi ma'lum bir darajadagi ishlar bilan bog'liq bo'lib, u ortiqcha xarajatlarni talab etar edi. Uni bartaraf etish maqsadida Gamburg, Bremen, Marsel, Livorna, Messine va boshqa shaharlarda «Port-Franko» hududlari yuzaga keldi.

«Port-Franko» hududi boshqa hududlardan maxsus bojxona chegaralari bilan ajralib turadi. «Port-Franko» shaharlari bilan boshqa mamlakatlar orasidagi tovar xarajatlar bojxona rasmiyat-chiligi va boshqa to'lovgarsiz amalga oshiriladi. Mamlakat ichkarisidagi tovar harakatida oddiy tartib-qoida hukm surdi. «Port-Franko» doirasida ishlab chiqarish savdo-sotiq faoliyatları amalga oshirildi. Boshqa barcha holatlarda «Port-Franko» davlat tartibiga bo'ysundi. «Port-Franko» tartibi faqatgina tashqi savdoni yuksaltirishga qarab qolmay, ayrim hududlarning iqtisodiy jihatdan yuksalishiga ham olib keldi. Bu hududlarda sanoat yuqori sur'atlar bilan rivojlandi, yuk harakati yaxshilandi, aholini uzlusiz tovarlar bilan ta'minlashga erishildi. Bizning asrimizga qadar «Port-Franko» Gibraltar, Malta, Singapur kabi mamlakatlarda mavjud bo'lgan.

XX asrga kelib, «Port-Franko» o'rniqa xalqaro savdoda hali sotilmagan tranzit yuklarni saqlash uchun portlarda omborlar yuzaga keldi. Bu ombordagi tovarlarni chetga chiqarish va chetdan keltirish har qanday rasmiyatchilik va boj to'lovlaridan ozod qilingan. Omborlar ijtimoiy (bojxonaga taalluqli) yoki xususiy (ayrim shaxslarga) taalluqli bo'lgan. Omborlar umumiyl bo'lib, 5 yilga qadar har qanday tovarlar saqlangan yoki 6 oyga qadar ayrim tovarlarni saqlash bilan chegaralangan. Omborlarda tovarlarni buzilishidan saqlash va saralash ishlari olib borilgan.

Keyinchalik «Erkin gavana» yuzaga kelgan. «Erkin gavana» bu port shaharlarda maxsus ajratilgan joy hisoblanib, bu yerga chet el tovarlarini olib kelishga ruxsat etilgan. Ular har qanday bojxona rasmiyatchiligi va to'lovlaridan ozod etilgan. Tovarlar saqlanishi

yuzasidan muddatlar belgilanmagan. Shu bilan bir qatorda, sanoat asosida qayta ishlab chiqarish va sotishga ruxsat etilgan. «Port-Franko» bilan «Erkin gavana» hududining farqi shundaki, jismoniy shaxslarni hududda yashashiga ruxsat etilmagan, foydalanish, gavanani saqlash, chakana savdo boj to'lovlari to'lanmagan. Mahsulotlarni iste'mol qilishga ruxsat etilmagan. Gavana hududidan mamlakat ichkarisiga tovar olib kirishda boj to'lovlari umumiy tartibda olingan.

Sobiq ittifoq mamlakatlari, ya'ni Rossiyada 1817-yilda mahalliy sanoatni rivojlantirish maqsadida Odessa shahrida «Port-Franko» tashkil etish yuzasidan qaror qabul qilingan. Bu tartib 1857-yilga qadar amal qilgan.

Odatda erkin iqtisodiy zonani boshqarish yuzasidan ittifoq tuziladi. Ushbu ittifoqqa quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- erkin iqtisodiy zonaning qonuniy aktlarga asoslangan holda tashqi iqtisodiy faoliyat yuzasidan siyosat olib borish;
- yuqoridaq qonunlarni zona ichida tatbiq etish;
- o'z vakolati doirasida normativ hujjatlar (aktlar) nashr etish.

Erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat korxonasi yoki to'la chet el investoriga qarashli bo'lgan korxona (tashkilot) respublika qonuniga ko'ra yuridik shaxs hisoblanadi. Ular orasidagi barcha kelishuv (shartnoma)lar, xo'jalik obyektlarining bir shakli sifatida respublika qonunlari normasida belgilanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyati. Erkin iqtisodiy zona respublika qonunlariga zid bo'lmagan ishlab chiqarish, savdo vositachilik, moliya, ta'lif va boshqa turdag'i faoliyatlarini amalga oshiradi. Qonunda taqiqlangan faoliyat turlari bilan shug'ullanishga, shu jumladan, ekologik holatni, sanitariya holatlari buzilishlariga ham yo'l qo'yilmaydi.

Erkin iqtisodiy zona xodimlari mehnatiga haq to'lash respublika qonunchiligidagi tan olingen xalqaro mehnatni tashkil etish tashkiloti konvensiyasi asosida amalga oshiriladi.

### ***9.3. Erkin iqtisodiy zonani boshqarish***

Erkin iqtisodiy zona faoliyatini zona ma'muriy kengashi muvofiqlashtirib turadi. Erkin iqtisodiy zonaning oliy organi esa ma'muriy kengash hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning operativ boshqaruvi organi — bu zona Bosh direksiyasi hisoblanadi. Ma'muriy kengash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joylardagi davlat hokimiyati organlari, tarmoq boshqaruvi organlari, investorlar, shu jumladan, chet el investorlari va fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillaridan tuziladi.

Erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashi quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi:

- erkin iqtisodiy zona huquq-tartibotiga rioya etilishini targ'ibot va nazorat qilib boradi;
- erkin iqtisodiy zonani istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi;
- investorlarni jalb etish uchun qo'shimcha shartlar belgilaydi;
- erkin iqtisodiy zonaning har yilgi byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari erkin iqtisodiy zona xo'jalik faoliyati qatnashchilari uchun majburiydir.

Erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat mulki obyektlari, joylardagi davlat hokimiyati organlarining o'z vakolat doirasidagi qaroriga binoan operativ boshqaruvi yoki to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zona ma'muriy kengashiga topshirib qo'yilishi mumkin.

Joylardagi hokimiyat organlari topshirgan mulklardan, obyektlardan oqilona foydalanishi hamda ularning muhofaza qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan mulk obyektlarini xususiy mulk qilib sotish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bu yerda xususiylashtirishning barcha usullaridan foydalanish mumkin, ya'ni kim oshdi savdosi, birja savdosi, kelgisida sotib olish sharti bilan ijara berish va hokazo.

Bosh direksiya — erkin iqtisodiy zonaning operativ boshqaruvi organi hisoblanadi. Bosh direksiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- alohida huquq-tartibotga amal qilinishini ta'minlaydi;
- tanlov asosida chet el kapitalini jalb etishni amalga oshiradi;

- zonani rivojlantirish dasturlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi;
- xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan korxonalarini ro'yxatga oladi;
- atrof-muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;
- bundan tashqari, nizomda qayd etilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Erkin iqtisodiy zona bosh direksiysi ma'muriy kengash tomonidan tuziladi. Bosh direktori ma'muriy kengash tomonidan tayinlanadi.

### **O'zini-o'zi tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qo'shma tadbirdorlik zonasiga haqida tushuncha va uni tashkil etishning maqsadi.
2. Erkin iqtisodiy zona tushunchasi.
3. Bojxona zonasiga.
4. Ilmiy texnik zona.
5. Erkin tadbirdorlik zonasining maqomi.
6. Erkin tadbirdorlik zonasining huquqiy asoslari.
7. Erkin iqtisodiy zona shakllari va turlari.
8. Erkin iqtisodiy zonani boshqarish.

## **TEST NAMUNALARI**

### **1. Marketing maqsadi:**

- a) ishlab chiqarishni bozor talablariga moslash;
- b) bahoni shakllantirish;
- d) iste'molchilarga xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

### **2. Marketingning asosiy funksiyaiari:**

- a) ishlab chiqarishni bozor talablariga moslash;
- b) talabni o'rghanish va bahoni shakllantirish;
- d) talabni o'rghanish, bahoni shakllantirish, reklama, sotishni rag'batlantirish, tovarlarni saqlash, yetkazib berish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

### **3. Moddiy rag'batlantirish fondiga foydadan ajratmaning maqsadi:**

- a) moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish;
- b) xodimlar manfaatdorligini oshirish;
- d) jamoa mehnat natijalarini yaxshilash;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

### **4. Agar foya normasi 7—10 foizni tashkil etsa, moddiy rag'-batlantirish fondiga ajratma miqdori qanday bo'ladi?**

- a) 4—5 foiz;
- b) 5—7 foiz;
- d) 8—9 foiz;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**5. Agar foyda normasi 10—15 foizni tashkil etsa, moddiy rag'-batlantirish fondiga ajratma miqdori qanday bo'ladi?**

- a) 4—5 foiz;
- b) 5—7 foiz;
- c) 8—9 foiz;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**6. Agar foyda normasi 15 foizdan yuqori bo'lsa, moddiy rag'-batlantirish fondiga ajratma miqdori qanday bo'ladi?**

- a) 4—5 foiz;
- b) 5—7 foiz;
- c) 8—9 foiz;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**7. Qo'shma korxonalarda qaysi fondlar tashkil etilishi majburiy hisoblanadi?**

- a) fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi;
- b) moddiy rag'batlantirish fondi;
- d) zaxira fondi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**8. Qo'shma korxonalarda foyda qanday taqsimlanadi?**

- a) zaxira fondiga;
- b) moddiy rag'batlantirish fondiga;
- d) fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga;
- e) ta'sis hujjatlari va nizomda qayd etilgan tartibda.

**9. Zaxira fondiga ajratma qanchadan boshlanadi?**

- a) 3 yildan so'ng;
- b) 5 yildan so'ng;
- d) faoliyat ko'rsata boshlagan yildan boshlab;
- e) qo'shma korxona boshqaruv hay'ati qarori bilan.

**10. Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondidan qaysi maqsadlarda foydalilanadi?**

- a) ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash;

- b) marketing xizmatini tashkil etish;
- d) yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish va turli loyihami moliyalashtirish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**11. Qo'shma korxona samaradorligi.**

- a) foyda miqdori;
- b) mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi va raqobatbardoshlilikning ortishi;
- d) bozordagi ulushi;
- e) faoliyat natijasining xarajatlarga nisbati.

**12. Qo'shma korxonaning xalq xo'jaligidagi samarasini aniqlash mezonlari:**

- a) davlat byudjetiga ajratma, respublikamiz ishtirokchisiga ajratilgan foyda miqdori;
- b) bank xizmatlari to'lovlari va boshqa tushumlar;
- d) qo'shma korxonalarga ajratilgan kreditlar va ularning mablag'larini banklarda saqlash uchun to'lovlari;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**13. Qo'shma korxonalarni material manbalari bilan ta'minlash yo'llari:**

- a) ulgurji savdo va tarmoq ta'minot tashkilotlari;
- b) tashqi savdo birlashmalari va firmalar;
- d) mustaqil jahon bozoridan sotib olish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**14. Qo'shma korxona boshqaruvining oliy organi.**

- a) boshqaruv hay'ati;
- b) ta'sischilar umumiylig'i ilishi;
- d) kuzatuv kengashi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**15. Ta'sischilar umumiylig'i ilishining asosiy funksiyalari.**

- a) boshqaruv hay'atini tanlash;
- b) qo'shma korxona hisobotini tayyorlash;

- d) boshqaruv hay'atini tanlash va qo'shma korxona hisobotini tasdiqlash;
- e) nizom ishlab chiqish.

**16. Umumiy yig'ilishning qanday shakllari mavjud?**

- a) oddiy va ekstraordinar;
- b) oddiy;
- c) ekstraordinar;
- d) yillik.

**17. Qo'shma korxona boshqaruv qarorlarini qabul qilish tarbi qaysi hujjatlarda qayd etilgan?**

- a) nizomda;
- b) umumiy yig'ilish qarorlarida;
- c) ta'sis shartnomasida;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**18. Qo'shma korxonalarda sug'urta obyektlari.**

- a) ijara olingan va qo'shma korxonaga qarashli asosiy vositalar;
- b) aylanma mablag'laringin bir qismi, ombordagi ishlab chiqarish zahira va o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar;
- c) xo'jalik faoliyati to'xtashi evaziga zararlar va qo'shma korxona fuqarolari javobgarligi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**19. Qo'shma korxona uchun qaysi sug'urta turlari tavsiya etiladi?**

- a) majburiy sug'urta;
- b) ixtiyoriy sug'urta;
- c) mashina va qurilmalarni ishdan chiqaradigan yuklarni transport vositalarida tashish va mulkni o'g'irlash;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**20. Qo'shma korxonalar kreditning qaysi turlaridan foydalanadilar?**

- a) uzoq muddatli;
- b) o'rta muddatli;

- d) qisqa muddatli;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

**21. «Qo‘shma korxonalar iqtisodi» fanining obyekti:**

- a) sheriklar;
- b) aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar;
- c) mas’uliyati cheklangan korxonalar va erkin iqtisodiy zona;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**22. Erkin iqtisodiy zonaning asosiy maqsadi:**

- a) ushbu sohada yuqori taraqqiyotga erishish;
- b) ishlab chiqarishni yuksaltirish;
- c) tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish;
- d) tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash.

**23. Ilmiy-texnik zona qaysi joylarda tashkil etiladi?**

- a) yirik ilmiy-texnik markazlarda;
- b) moliyaviy imkoniyatlar mavjud bo‘lgan joylarda;
- c) yuqori ishlab chiqarish va saqlash, infratuzilma va chet el investorlari uchun qulay investitsion muhit yaratilgan joylarda;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**24. Bojxona zonasini qayerlarda tashkil etiladi?**

- a) barcha davlatlarda;
- b) dengiz portlari, yirik chegara, temir yo‘l uzellari va aeroportlarda;
- c) chegara portlarda;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**25. Qo‘shma korxonalar qaysi davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olinadi?**

- a) Adliya vazirligi va Moliya vazirligi huzuridagi davlat idorasidagi boshqarmalarda;
- b) Moliya vazirligi;
- c) Davlat soliq qo‘mitasi;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**26. Qaysi holatlarda qo'shma korxona faoliyati to'x-tatiladi?**

- a) atrof-muhit muhofazasi talablari buzilganda;
- b) nizomda qayd etilgan faoliyat qo'pol ravishda buzilgan holatlarda;
- d) korxona ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida o'z faoliyatini boshlamagan hollarda;
- e) «b» va «v» javob to'g'ri.

**27. Xorijiy sarmoyali korxonaga qanday talablar qo'yiladi?**

- a) 2 va undan ortiq ta'sischi tomonidan tashkil etilishi;
- b) nizom kapitali qiymati 150 ming AQSH dollari, xorijiy sarmoyaning ulushi 30 foizdan kam bo'lmaslik;
- d) nizom kapitalining ulushi 1 million AQSH dollaridan kam bo'lmaslik;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**28. Qaysi holatda korxona xorijiy sarmoyali korxona sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin?**

- a) ta'sischilardan bittasi xorijiy yuridik shaxs hisoblansa;
- b) nizom kapitalining miqdori 150 ming AQSH dollari miqdoridan ortiq bo'lsa;
- d) xorijiy sarmoyalalar ulushi 30 foizdan kam bo'lmasa;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**29. Reimport nima?**

- a) xorijiy tovarlarni bojxona hududidan olib chiqib ketiladigan tartib;
- b) ilgari chetga chiqarilgan tovarlarni mamlakat hududiga takror olib kirish;
- d) kelishuv, bunda tomonlar orasida biror buyum boshqasiga almashtiriladi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

**30. Reeksport nima?**

- a) xorijiy tovarlarni bojxona hududidan olib chiqib ketiladigan tartib;

- b) ilgari chetga chiqarilgan tovarlarni mamlakat hududiga takror olib kirish;
- d) kelishuv, bunda tomonlar orasida biror buyum boshqasiga almashtiriladi;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

**Test savollarining to‘g‘ri javoblari:**

Savol	Javob	Savol	Javob	Savol	Javob
1.	A	11.	E	21.	E
2.	D	12.	E	22.	A
3.	E	13.	E	23.	D
4.	A	14.	B	24.	B
5.	B	15.	D	25.	A
6.	D	16.	A	26.	E
7.	D	17.	A	27.	B
8.	E	18.	E	28.	E
9.	D	19.	D	29.	B
10.	E	20.	E	30.	A

## TAYANCH IBORALAR

**Adolatlik** — insonlarning shaxsiy sifat fazilatlariga aniq baho berish, ularning alohida harakatini tan olish, tanqidga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘z-o‘zini tanqidga rioya qilish.

**Ajiotaj talab** — bozordagi shov-shuv ta’sirida sun’iy joyda bo‘ladigan va tez sur’atlar bilan ortib boradigan talab.

**Akkreditiv** — pul hisob-kitob hujjati, mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatni naqd pulsiz to‘lash shakli.

**Aksiyadorlik jamiyatি** — turli korxona, tashkilot, bank va ayrim shaxslar pul mablag‘larini sheriklik asosida va sohibkorlik maqsadida birlashtiradigan jamiyat.

**Aksiya** — aksiyadorlik jamiyatni chiqargan va daromad keltiruvchi qimmatbaho qog‘oz.

**Aksiyalar nazorat paketi** — aksiya egasiga aksiyadorlik jamiyatida amaldagi ustunlikni ta’minlaydigan aksiyalar miqdori.

**Anketa** — (so‘rov varaqasi) — mazmuni va shakli bo‘yicha savollarning tartibga solingan ko‘rinishi.

**Aralash mulk** — turli mulk shakllarining sintezidan tashkil etiladi.

**Auditor firma** — korxona va tashkilotlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini tekshirib, ular ishining iqtisodiy ekspertizasini o‘tkazib beruvchi firma.

**Aukcion** — yakka xususiyatga ega bo‘lgan tovarlami sotish uchun muayyan joylarda tashkil etiladigan maxsus kim oshdi savdosi bozorlari.

**Aholini ijtimoiy himoyalash** — aholini bozor iqtisodiyotining salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlaridan saqlash, aholi turmush farovonligi o‘shishini ta’minlash.

**Balans** — muttasil o‘zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.

**Bank** — pul mablag‘larini jalg qilish hamda ularning qaytarilishi, to‘lashlik va muddatilik shartlari asosida o‘z nomidan joylashtirish uchun tuzilgan muassasa.

**Bankrotlashtirish siyosati** — makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik. Pul qadrsizlanishi, pul emissiyasining boshqarilishini ta’minlash, to‘lov balansi va bir me’yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko‘zlab olib boriladigan siyosat.

**Bankrotlik** — Sinish, fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag‘i yetishmasligidan o‘z majburiyatlari bo‘yicha qarzlarni to‘lashga qurbi yetmasligi.

**Barter** — valyutasiz tovar ayrboshlash.

**Barter bitimi** — valyutasiz tovar ayrboshlash haqidagi bitim (shartnoma).

**Biznes** — xo‘jalik yuritishning usuli, iqtisodiy fikrlash turi.

**Biznes** — sohibkorlik tijorat ishlari bilan shug‘ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo‘lish.

**Birja** — namunalar yoki standartlar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori.

**Birja kursi** — fond birjasida muomalada bo‘ladigan qimmat-baho qog‘oz qiymati.

**Boj** — chetdan keladigan tovarlardan davlat hisobiga bojxona nazorati tomonidan undiriladigan pul yig‘imi.

**Bojxona** — chegara orqali barcha yuklarni nazorat qiladigan davlat muassasasi.

**Bozor ulushi** — ma’lum bir tovarlarni bozorda sotuvchi firmaning umumiy mahsulotga nisbatan ulushi.

**Bozor intervensiysi** — milliy yoki regional bozorga tashqari dan suqilib kirish, uni o‘ziga tobe etish.

**Bozor infrastrukturasi** — bozor iqitsodiyoti uchun har xil xizmat ko‘rsatuvchi sohalar, banklar, tijorat banklari, savdo uylari, auksion.

**Bozor islohotlari** — xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlarini shakllantirish chora-tadbirlarining davlat nazorati ostida amalga oshirilishidir.

**Bozor kon'yukturasi** — ayrim bozorlarda muayyan holatning mavjudligi.

**Bozor muvozanati** — bozordagi talab va taklifning miqdoriy va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi.

**Bozor regulyatori** — ishlab chiqarishni bozor orqali tartibga solishning iqtisodiy vositasi.

**Bozor segmentatsiyasi** — ma'lum belgi alomatlariga qarab bozorning har xil qismlarga ajralishi.

**Valyuta** — mamlakatning pul birligi va uning tipi, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari.

**Valyuta** — milliy doirada amal qiluvchi qadr-qiymati shu mamlakat boyligi bilan ta'minlangan pul.

**Valyuta kursi** — mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

**Vatanparvarlik** — vatanga sodiqlik, ijtimoiy manfaatlarni o'z manfaatlardidan ustun ko'rish.

**Vijdonlilik** — odamlar va jamoa oldida shaxsiy javobgarlik.

**Vizit kartochkalari** — siznnig kelgusida hamkoringiz bilan ish yuzasidan va shaxsiy muloqotda bo'lishni qo'llab-quvvatlashni ifodalovchi vosita.

**Davlat buyurtmasi** — davlat tomonidan ma'lum mahsulot turini ishlab chiqarish, uni iste'molchiga yetkazib berish, noishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishni bajarish bo'yicha korxonalarga beriladigan topshiriq.

**Davlat byudjeti** — davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalangan majmui.

**Davlat byudjeti** — umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar.

**Daromad** — davlat savdo-sanoat muassasalari, korxonalar, firmalar, ijtimoiy tashkilotlar yoki shaxslar hisobiga kelib tushadigan pul tushumi va boshqa mablag'lar.

**Dotatsiya** — qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish.

**Debitor** — yuridik yoki jismoniy shaxs, davlat, tashkilot va mahkamalarning o'zaro qarzdorligi.

**Debitorlik qarzi** — o'zaro xo'jalik aloqalarini olib boruvchi korxona, tashkilotlrning bir-biridan qarz summasi.

**Dividend** — aksiyadorlik jamiyatida jamiyat foydasining aksiya egasi daromadiga aylangan qismi.

**Dizayn** — o‘ylab ko‘rilgan ish, reja, chizma, rasm. Loyiha — badiiy faoliyat kompleksi. Uning asosiy maqsadi — respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardosh-lilagini oshirish muammolarini bartaraf etish.

**Diler** — ishbilarmon, savdogar o‘z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug‘ullanadi.

**Yevrovalyutalar** — bir qator rivojlangan kapitalistik mamlakatlar o‘z chegarasidan tashqaridagi muomalada qarz va hisobkitob harakatlarida, ayniqsa, banklararo qarz va transnatsional korporatsiyalarni kreditlashda foydalilanligan valyuta.

**Yevropa iqtisodiy hamjamiyati** — G‘arbiy Yevropa davlatlari a’zo bo‘lgan iqtisodiy uyushma.

**Javobgarlik** — mas’uliyatni his etish, imkoniyatdan oqilona foydalanish.

**Javobgarlikni his eta bilish** — ish bilan so‘z birligi, ishbilarmonlik yuzasidan tavakkalchilik qilish.

**Jamoa mulki** — boylikning muayyan maqsad yo‘lida ayrim jamoalarning birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o‘zlashtiradigan mulki.

**Jasorat** — botirlik, ishdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘zida singdira olish.

**Jurjis** — yuqori amaldor shaxslarning xotinlari orasida o‘tkaziladigan tadbir.

**Iqtisodiy o‘sish** — kishilarning talab-ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarishda ko‘payib borishi.

**Investitsiya** — ishlab chiqarishni rejalshtirish maqsadida mamlakat yoki chet el iqtisodiyotini turli tarmoqlariga uzoq muddatli kirishi.

**Investitsiya banklari** — xo‘jalikning turli tarmoqlarini moliyalash va uzoq muddatli qarz berishga ixtisoslashgan banklar.

**Investitsiyalash** — tadbirkorlikka kapital jalb etish.

**Insonparvarlik** — har bir insonga hurmatda bo‘lish. Uning shaxsiy imkoniyatlariga qarash va ishonish.

**Intiluvchanlik** — maqsadga erishish, odamlar hurmatiga sazovor bo‘lish, o‘z-o‘zini nazorat qila bilish.

**Iste’mol bozori** — aholi is’temoli uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlarning ayrboshlanishi.

**Kamtarlik** — berilgan huquqlardan ongli foydalanish, o‘z yutuqlari va kamchiliklariga tanqidiy munosabatda bo‘lish.

**Kapital** — asosiy mulk, yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish yo‘li bilan qo‘srimcha qiymat keltiradigan o‘z-o‘zini ko‘paytiruvchi qiymat.

**Kvota** — davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovar ishlab chiqarish.

**Kelajakka ishonish** — o‘ziga va odamlarga ishonish.

**Kollektivlik** — tashkilotchilik, intizomlilik, kirishuvchanlik yoki birovlar ko‘nglini ola bilish.

**Konvertatsiyalangan valyuta** — har qanday xorijiy mamlakatlar valyutasiga erkin va chegaralanmagan miqdorda almashtirilishi mumkin bo‘lgan valyutalar.

**Konvertatsiyalangan so‘m** — boshqa valyutaga erkin almashdigan mahaliy valyuta.

**Kontrakt** — mamlakatlar, firma, korxona, birlashma orasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish va bekor qilish to‘g‘risidagi ikki tomonlama yozma kelishuv.

**Kontrakt narxlar** — oldi-sotdi kontraktlarida belgilangan narxlar.

**Konsern** — ishlab chiqarish divesifikatsiya asosida tarkib topadigan yirik ko‘p tarmoqli korporatsiya.

**Konflikt** — xodimlarning manfaatlari, qadriyatlar va ahloq normalari qarama-qarshiligi.

**Korxona** — yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, mulkchilik huquqi yoki xo‘jalikni to‘la yuiritish huquqi bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan yoki ayirboshlaydigan ishlarni bajaradigan, xizmat ko‘rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o‘z faoliyatini ro‘yobga chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

**Kredit** — vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olishi va qaytarib berishi yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar.

**Krizis** — iqtisodiy tanglik, tanazzul.

• **Kuzatuv** — doimiy ravishda sotsiologik jarayonlarni qayd qilish va rasmiylashtirish.

**Lider (yo‘lboshchi)** — jamoa orasidagi nisbatan tashabbuskor, harakatchan, mulohazali, yangiliklardan xabardor, yangilikka intiluvchan xodim.

**Lizing** — mashina, asbob-uskuna, transport vositalari ishlab chiqarish inshootlarini ijara olish.

**Limit** — xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari miqdorining cheklanishi.

**Litsenziya** — texnikaviy-iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun beradigan ruxsati.

**Marketing** — bozor holatini asosli o‘rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni hamda shu yo‘sinda katta foyda topishni tashkil etish.

**Menedjerlar** — yollanma professional boshqaruvchilar.

**Menejment** — boshqarish san’ati va mahorati.

**Mehnat birjasি** — ishchi, xizmatchi va korxona egasi orasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo‘yicha kelishuvini amalgalashirishda muntazam vositachi vazifasini o‘taydigan maxsus muassasa.

**Mehnat unumdarligи** — vaqt birligida yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdori yoki mahsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqt.

**Mehnatsevarlik** — o‘z ishi va hulqi bo‘yicha shaxsiy namuna ko‘rsatish.

**Mehnat karyerasи** — shaxsning mehnat faoliyati tarixi.

**Milliy boylik** — asrlar osha avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlar, ma’naviy bilimlar, malaka va mahorat majmui.

**Milliy valyuta** — ma’lum bir davlat pul birligi.

**Moliya** — xalq xo‘jaligidagi pul resurslarini hosil etish, ularni taqsimlash va ishlatish borasidagi iqtisodiy munosabatlar mazmuni.

**Moliyaviy resurs** — mahsulot ishlatish uchun taqsimlangan pul shaklidagi moliyaviy fond.

**Mulk** — qonunda egalik qilish, foydalanish va ruxsat huquqidagi mulk va intellektual mehnat mahsuli.

**Mulkdor** — o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘ziga tegishli mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

**Nazorat** — ishlab chiqarishning haqiqiy manzarasi ifodasi.

**Narx** — tovar qiyematining puldagi ifodasi bo‘lib, bozor iqtisodiyotining muhim dastagidir.

**Norasmiy qabullar** — tadbirkorlarning ish yuzasidan uyush-tirib o‘tkaziladigan «Nonushta», kunduzgi va kechki qabullari.

**Oqko‘ngillilik** — odamlarning ayrim xatolariga chidash, xafa-garchilikni unutish, kechirish, e’tiborsiz bo‘lmaslik.

**Oltin zaxirası** — mamlakat markaziy emissiya banki yoki xazinasining quyma yoki tanga shaklida to‘plangan, markazlashgan oltin zaxira fondi.

**Ochiq bozor** — tovarlarni boshqa yerdan erkin keltirib chega-ralanmagan holda oldi-sotdi qilinishi.

**Patent** — xususiy tarzda sohibkorlik faoliyatini bilan shug‘ulla-nishga ruxsat beruvchi guvohnoma.

**Prezentatsiya (tanishtiruv)** — to‘lov to‘lash majburiyatini olgan shaxs tomonidan jo‘natilgan vekselni ko‘rsatish va tanish-tirish.

**Privatizatsiya** — mulkni davlat tasarrufidan chiqarish.

**Prinsipiallik** — o‘z o‘rni va mavqeini saqlash, so‘z bilan ish birligini ta‘minlash.

**Pul** — hamma tovarlar va xizmatlar ayrboshlanadigan, umumiyl ekvivalent bo‘lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi.

**Pul qadri** — pulning tovar va xizmatlarni xarid etishi, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati.

**Pul massasi** — muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog‘oz pullarning jami miqdori.

**Pul muomalasi** — pulning xo‘jalik faoliyatidagi harakati.

**Pulning qadrsizlanishi** — pul xarid qobiliyati va valyuta kursining pasayib ketishi.

**Raqobat** — ishlab chiqarish munosabatlарining subyektlari o‘rtasida va qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo‘lish, unumliroq texnologik ish joyi, yaxshi bozorni qo‘lga olish, umuman, yuqori foyda olish uchun olib borilgan kurash.

**Rasmiy qabullar** — tashkilotchilar tomonidan yirik ko‘rgazmalar, konferensiyalar va savdo yarmarkalari ochilishi sharofati bilan uyuştirilgan tadbirlar.

**Rag‘batlantirish va chora ko‘rish** — xodimlar faolligini oshiruvchi vosita.

**Reklama** — istemolchiga tanishtirish va bildirish to‘g‘risidagi, tovar haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan, maqsadini iste’molchiga yetkazish usullari.

**Renta** — yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to‘lanadigan haq.

**Sahiylik** — odamlarga xolis xizmat qilish.

**Sertifikat** — davlat zayomining maxsus turi.

**Soliq dekloratsiyasi** — soliq to‘lovchining ma’lum bir vaqt davomida olgan daromad miqdorini bildiruvchi hujjat, yozma bayonot va guvohnoma.

**Soliqlar** — milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish sharti.

**Sof milliy mahsulot** — miqdordan, yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya ajratmasining chegirib tashlangan qismi.

**Sertifikat** — tovarlarning aniq andozalar (standartlar) va texnik shartlarga mos kelishini ifodalovchi hujjat bo‘lib, u ekspertiza ma’lumotlariga asoslangan holda tegishli davlat organlari tomonidan beriladi.

**Sertifikatlash** — tegishli hujjat berilganligi va mahsulotning andoza, texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlovchi harakat.

**So‘rov** — sotsiologik tadqiqotlarning eng keng tarqalgan usuli bo‘lib, sotsiologlar tomonidan berilgan savollarga javob olish.

**Sponsor** — bironta tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko‘rsatuvchi xolis.

**Ssuda** — haq to‘lash sharti bilan qarzga berilgan pul.

**Ssuda fondi** — qarzga berilgan va banklarda to‘plangan pul mablag‘lari.

**Stagflyatsiya** — iqtisodiyotning ham turg‘unlik, ham inflyatsiya bilan xarakterlanuvchi holati.

**Strategiya** — firmaning umumiy siyosati, bosh maqsadi.

**Subsidiya** — davlat byudjetidan korxona, tashkilot va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag‘.

**Supermarket** — xaridorning o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatishiga asoslangan keng tarmoqli magazin.

**Tadbirkor** — o‘zining ma’lum bir miqdordagi moliyaviy mablag‘ini tavakkal qilgan holda bozorga yangi g‘oya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxs.

**Tadbirkorlik** — mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatish.

**Taklif** — ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va muayyan paytda bozorga chiqariladigan yoki keltirish mumkin bo‘lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdori.

**Taktika** — strategiyani amalga oshirishdagi barcha shakl va usullar.

**Talab** — eng avvalo biron bir tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi.

**Talab va taklif qonuni** — bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuni.

**Tijorat siri** — ishlab chiqarish va savdo-sotiqla bevosita ishtirokchilargagina ma’lum bo‘lgan va boshqalarga e’lon qilinmaydigan ma’lumotlar.

**Tovar** — pulga teng ekvivalent tarzda almashuvchi har qanday buyum.

**Tovarning hayotiy sikli** — tovarning bozorda sotilib, sotuvchiga foyda keltirib turish davri.

**Tovarning hayotiylik davri** — tovarning bozorga birinchi partiyasini qo‘yishdan to oxirgi partiyasi sotilgunga qadar bo‘lgan davr.

**Fond birjasi** — qimmatbaho qog‘oz, oltin va chet el valyutalari bozori.

**Xarakter** — fe’l-atvor.

**Xolding kompaniya** — boshqa banklar, firmalarni nazorat qilish va ular harakatini kuzatib borish uchun ularning aksiyalarini nazorat qilish paketiga egalik qiluvchi kompaniya.

**Xususiy mulk** — ayrim kishilarga va guruhlarga tegishli bo‘lgan daromad topishga qaratilgan mulk.

**Xizmat odobi** — ish yuzasidan jamoa a’zolari bilan munosabatlarning belgilangan shakl va tartiblari.

**Xotira** — shaxsning o‘z hayotiy tajribasini esda saqlab turishi.

**Xotirani yuksaltirish** — inson aqliy imkoniyatining samarali boshqarishga qaratilgan og‘ir va uzoq davom etuvchi jarayon.

**Halollik** — ishbilarmonlik, talabchanlik, ishdan qoniqish hosil qilish va insonlarga haqiqatni ayta bilish.

**Hujjat (dokument)** — ma'lumotlarni uzatish va saqlash uchun maxsus tuzilgan yozma manba.

**Emissiya** — muomala bank biletlari, pul va qimmatbaho qog'ozlar chiqarish.

**Yalpi milliy mahsulot** — bir yil davomida jamiyatda pirovard natijada yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatida hisoblangan miqdori.

**Yangi xalqaro iqtisodiy tartib** — xalqaro munosabatlarda tenglik va adolat qoidalariiga asoslangan hamda barcha mamlakatlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi aloqalar mazmuni.

**Qaror** — reja, topshiriq, buyruq. Rahbarlar tomonidan belgilanadigan boshqaruv usulining mahsuli.

**Qiziqishlar** — odam bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar namoyoni.

**Qobiliyat** — imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror ishdagi zaruriy mahorat darajasining o'lchovi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *I.A. Karimov.* O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T. — «O‘zbekiston», 1995- y.
2. *I.A. Karimov.* O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. — «O‘zbekiston», 1999- y.
3. *I.A. Karimov.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. O‘zbekiston Respublikasi Ikkinchichaqiriq Oliy Majlisi birinchi sessiyasidagi ma’ruzasi. T. — «O‘zbekiston», 2000- y.
4. *I.A. Karimov* «Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish — bosh yo‘limiz» 2001- yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2002- yilgi vazifalarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. T. — 2002- yil, fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992- yil 8-dekabr. (2003- yil 24- aprelgacha bo‘lgan tuzatish va qo‘srimchalar bilan). T. — «O‘zbekiston», 2003- y.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1991- yil 15- fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni. «O‘zbekistonning yangi qonunlari». T. — «Adolat», 1996- y.
7. O‘zbekiston Respublikasining 1991- yil 14- iyundagi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni. (2004- yil 3-dekabrgacha bo‘lgan o‘zgarishlar va qo‘srimchalar bilan), O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. №5, 2004- y. 90-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining 1994- yil 5- maydagi «Chet el investitsiyalari va chet elliq investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. «O'zbekistonning yangi qonunlari» T. — «Adolat», 1996- y.
9. V.P. Gorshnev, Upravleniye organizatsiyey. M. — «Yuniti», 1999.
10. M. Sharifxo'jayev, Yo. Abdullayev. Menejment. T. — «O'qituvchi», 2001- y.
11. S.S. G'ulomov. Menejment asoslari. T. — «TDAU», 1997- y.
12. A.D. Golubovich, G.I. Nikerin. Ekonomicheskiy analiz deyatelnosti sovremennix predpriyatiy v mashinostroyeniye. M. — «Mashinostroyeniye», 1989.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### I bob

#### «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining nazariy va uslubiy asosiari

1.1. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining mavzusi, obyekti va o'rGANISHNING ahamiyati.....	4
1.2. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanining asosiy prinsiplari.....	5
1.3. «Qo'shma korxonalar iqtisodi» fanini o'rGANISH usullari.....	9

### II bob

#### Qo'shma korxonalar tashkil etishning asoslari

2.1. Qo'shma korxonalar tashkil etishning zarurati, mohiyati va vazifalari.....	14
2.2. Ta'sischilar va ularning manfaatlari.....	19
2.3. Ta'sis shartnomasi va qo'shma korxonalar infratuzilmasi.....	22
2.4. Qo'shma korxona nizomi va uning mazmuni.....	23
2.5. Qo'shma korxonani ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritish tartibi.....	24
2.6. Qo'shma korxonaning tugatilishi.....	25

### III bob

#### Qo'shma korxonalar faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholash

3.1. Qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga iqtisodiy baho berish.....	28
3.2. Qo'shma korxonalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning uslubiy qoidalari.....	30

### IV bob

#### Qo'shma korxonalarda moddiy-tehnika ta'minoti va marketing

4.1. Qo'shma korxonalarda moddiy-tehnika ta'minoti va mahsulotlarni sotish.....	36
4.2. Qo'shma korxonalarda xo'jalik faoliyati mexanizmi.....	37
4.3. Marketing.....	38

## V bob

### Xalqaro mehnat taqsimoti va boshqaruv tizimi

5.1. Qo'shma korxonalarda xalqaro mehnat taqsimoti.....	40
5.2. Qo'shma korxonalarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi.....	41

## VI bob

### Qo'shma korxonalarda moliya va kredit mexanizmi

6.1. Qo'shma korxonalarda soliq va soliqqa tortish.....	45
6.2. Qo'shma korxonalarda bahoni shakllantirish.....	46
6.3. Qo'shma korxonalarda foyda va uning taqsimlanishi.....	47
6.4. Qo'shma korxonalarining xalq xo'jaligidagi samarasi.....	56
6.5. Qo'shma korxonalarda kredit tizimi.....	58
6.6. Qo'shma korxonalarda sug'urta.....	61

## VII bob

### Qo'shma korxonalar faoliyatini rejalashtirish va biznes reja

7.1. Rejalashtirishning uslubiy asoslari.....	63
7.2. Korxona biznes rejasi, uning mazmuni va tuzish tartibi.....	68

## VIII bob

### Qo'shma korxonalarda kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lash

8.1. Qo'shma korxonalarda kadrlar siyosati.....	71
8.2. Qo'shma korxonalarda mehnatga haq to'lash.....	72
Qo'shma korxonalar tashkil etishning texnik jihatdan asoslash bo'yicha jadvallar ko'rinishi.....	75

## IX bob

### Qo'shma tadbirdorlik

9.1. Qo'shma tadbirdorlik zonasi.....	82
9.2. Erkin tadbirdorlik zonasi maqomi va uning huquqiy asoslari.....	84
9.3. Erkin iqtisodiy zonani boshqarish.....	88
Test namunalari.....	91
Tayanch iboralar.....	98
Foydalanilgan adabiyotlar.....	108

**A. Abdullayev, X. Aybeshov,  
Sh. Mamatqulov, X. Xo'jaqulov**

**QO'SHMA  
KORXONALAR IQTISODI**

Muharrir **Sahobiddin Sirojiddinov**  
Badiiy muharrir **Uyg'un Solihov**  
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**  
Musahhiha **Mahmuda Usmonova**

№ 09-192

Bosishga ruxsat etildi 19. 12. 2005. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 7,00. Nashr b.t. 7,24. Shartnoma № 78-2005. 500 nusxada. Buyurtma № 180.

Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«Arnaprint» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. 700182. Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41-uy.